Shunday qilib, bunday aqlli muhit loyihalarining arxitektura namunasini yagona standartlashtirish g‘oyasi tabiiy ravishda paydo bo‘ldi. Ko‘plab muvaffaqiyatli va davom etayotgan loyihalarni namuna sifatida olib, biz umumiy tuzilish, umumiy namuna va bir gap bilan aytganda “eng yaxshi amaliyotlar”ni topishga harakat qildik. Bu kelajakdagi loyihalarga umumiy tizim arxitekturasi bo‘lib xizmat qilishiga va har bir loyihadagi noyob talablarga ko‘proq e’tibor qaratishga yordam beradi. Preuveneyers va Novaisning tadqiqotiga ko‘ra talablar muhandisligi, kontekst modeli, ishlab chiqarishni tezlashtirish va kodni qayta ishlatish kabi turli darajalardagi aqlli keng tarqalgan ilovalar bo‘yicha eng yaxshi arxitektura namunasini topish va o‘rganishga qaratilgan o‘xshash tadqiqotlarni ko‘rib chiqiladi [5]. Bu maqolada esa, biz aqlli muhit tizimlarining arxitekturasi uchun umumiy namunaga e’tibor qaratamiz.

Biz aqlli muhit loyihalarida umumiy bo‘lgan arxitekturaning bir nechta pog‘onasini tanishtiramiz va bu pog‘ona qismlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan potensial komponentlar haqida muhokama qilamiz. Keyin, shunday arxitektura ichida umumiy ma’lumot oqimlarini muhokama qilamiz va eng muhim muammolarni, masalan, ko‘lamni kengaytirish va xatolarga bardoshlilikni tilga olamiz. Oxir-oqibat, bir nechta namunalarni, muvaffaqiyatli davom etayotgan aqlli bino loyihalarini taqdim etamiz va ko‘rsatilgan namuna ularning arxitekturalarida osonlik bilan moslashtirilishi mumkinligini ko‘rsatamiz.

2008-yilda Italiyaning Rim shahrida "Hamma uchun Aqlli Uylar" (SM4All) loyihasi doirasida aqlli kvartira quriladi. Loyiha murakkab sun’iy intellekt (AI) rejalashtirish texnikalaridan foydalanadi, bu esa har qanday vaziyatda foydalanuvchining ehtiyojlariga moslashish uchun bir qator harakatlarni ishlab chiqaradi.

Shuningdek ushbu loyihalar qatoriga “e-Diana” loyihasi (2009-yil), “GreyenerBuildings” loyihasi (2013-yil), “ThinkHome” loyihasi (2013-yil) va boshqa yirik loyihalarni misol keltirishimiz mumkin.

Ushbu loyihalar foydalanuvchilarning odatlarini o‘rganish, ularning xatti-harakatlarini

avtomatik ravishda bashorat qilish va tegishli muhitni yaratish orqali shaxsiy qulaylikni oshirishga qaratilgan. Endi biz loyihalarda umumiy bo‘lgan komponentlarni batafsil taqdim etamiz.

Umumiy arxitektura

Endi esa aqlli muhit uchun vaziyatga (kontekstga) sezgir umumiy arxitektura namunasini taqdim etamiz. Arxitektura namunasi 1-rasmda ko‘rsatilgan. Biz to‘liq arxitekturani to‘rtta pog‘onaga bo‘lish mumkinligini va har bir pog‘onada bir nechta farqli komponentlar mavjudligini ko‘rsatamiz. Ko‘pgina komponent namunalari barcha kontekstga sezgir aqlli muhitlar uchun umumiy bo‘lgan talablarga ko‘ra arxitektura loyihasi o‘xshashliklaridan kelib chiqadi.



1-rasm. Vaziyatga sezgir aqlli muhit arxitekturasi.

Quyida tavsiflanadigan komponentlar tizimga komponentlarning mavjudligi jihatidan to‘liq mos kelmasligini ta’kidlash muhimdir. Bu yerda keltirilgan komponentlar asosiydir, lekin ko‘pincha amaliyotda ba’zi bir yordamchi komponentlar talab qilinadi, bu komponentlar

boshqa komponentlar o‘rtasida aloqani o‘rnatadi yoki kuzatuvchi, proksi, monitor kabi vazifalarni bajaradi. Shuningdek, agar tizim ma’lum bir maxsus qobiliyatga ega bo‘lsa, masalan, isitish mexanizmlarini maxsus boshqarish yoki nogiron foydalanuvchilar uchun maxsus qo‘llab-quvvatlash tizimi kabi, ko‘pincha bu alohida komponentni talab qiladi. Shunday qilib, bu maqolada tavsiflanadigan tizim zarurat tug‘ilganda ko‘proq komponentlarni ulash imkoniyati bilan kengaytirilishi mumkin deb qaralishi kerak. Aksincha, ba’zi taqdim etilgan komponentlar va oqimlar ba’zan kichikroq miqyosdagi loyihalarda soddalashtiriladi, birlashtiriladi yoki umuman olib tashlanadi. Bu imkoniyat komponentlar darajasida ta’kidlanadi.

Fizik pog‘ona tizimning barcha apparat qismlarini o‘z ichiga oladi, bu esa barcha simli va simsiz sensorlar, harakatlantiruvchilar, tarmoq sxemasi, ular bilan bog‘liq past darajadagi protokollar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Fizik pog‘onaning asosiy vazifalaridan biri muhit haqida ma’lumotni to‘plash va uni yuqori pog‘onalarga uzatishdir. Past darajadagi protokollar bir xil shlyuzni ta’minlash uchun amalga oshirilishi mumkin, bu esa interfeyslarni birlashtirish, maxsus apparat farqlarini yashirish yoki ma’lumotni birlashtirish orqali tarmoq talablarini kamaytirish imkonini beradi. Fizik pog‘onaning ikkinchi asosiy vazifasi yuqori pog‘onalardan yuborilgan buyruqlarga asosan muhitdagi harakatlantiruvchilarni ishga tushirishdir.

Yuqorida tasvirlangan aqlli muhit arxitekturasi namunasining har bir pog‘onasi alohida komponentlarga ega. Har bir komponent esa bir nechta aniq vazifalarga ega. Avvalo, bu pog‘ona tizimning ma’lumotlar saqlash joyini o‘z ichiga oladi, ya’ni muhit, tizim konfiguratsiyasi, tizim imkoniyatlari, foydalanuvchi uchun imkoniyatlar va boshqalar haqidagi hozirgi va tarixiy barcha ma’lumotlarni to‘playdi va saqlaydi.

Shuningdek ushbu pog‘ona, oddiy sensor xatolari yoki nosozliklarni aniqlay oladigan, past darajali sensor qiymatlarini muhitning yuqori darajali mantiqiy holatiga o‘zgartiradigan va boshqalar kabi ma’lumotlarni qayta ishlash komponentini o‘z ichiga olishi kerak.

Fikrlash pog‘onasida tizimning mantig‘i joylashgan. Bu pog‘ona tizimning harakatlariga qaror qilish uchun javobgar bo‘lgan barcha komponentlarni o‘z ichiga oladi, bu oddiy mantiq qat’iy “agar – unda” (if-then) qoidalar orqali belgilangan bo‘lishi mumkin yoki rejalashtirish yoki harakatlarni jadvalga kiritish kabi murakkab AI texnikalari bo‘lishi mumkin. Shuningdek ushbu pog‘ona, faoliyatni tanish yoki o‘rganish komponentlarini o‘z ichiga olishi mumkin, bu esa avtomatlashtirilgan tizimning javobini yaxshilashi kerak.

Foydalanuvchi pog‘onasi tizim haqida ma’lumotlarni uning foydalanuvchilariga taqdim etadi. U ikki asosiy qismdan iborat. Birinchisi muhit haqida, hozirgi foydalanuvchi uchun yaratilgan qulayliklari, tizimning ma’lum qarorlari uchun sabablar haqida ma’lumot beradi va foydalanuvchiga o‘z ehtiyojlariga muvofiq tizim konfiguratsiyasini o‘zgartirish, yangi ijro qoidalarini kiritish yoki tizimning qarorlarini bekor qilish imkoniyatini beradi. Ikkinchi qism o‘zi tizim haqida meta-ma’lumotlarni taqdim etadi, masalan, barcha komponentlarning holati, ular to‘g‘ri ishlayotganligi, statistika, resurslarni iste’mol qilish va boshqalar. Endi har bir pog‘onani batafsil tavsiflaymiz.

Fizik pog‘ona

Fizik pog‘onaing asosiy qismi, nomidan ko‘rinib turibdiki, apparat qismdir, ya’ni muhitga o‘rnatiladigan qurilmalar. Aqlli uy muhitini amalga oshirishni rejalashtirgan barcha guruhlar dastlabki bosqichdan boshlab oldindan hal qilinadigan muammo bilan to‘qnash keladi. Masalan, ular foydalanmoqchi bo‘lgan qurilmalarning xilma-xilligi. Hozirgi vaqtda ba’zi kompaniyalar sensorlar va harakatlantirgichlar kombinatsiyasini taqdim etishga ixtisoslashgan bo‘lsa-da, hanuz ko‘plab maxsus ehtiyojlarga mo‘ljallangan, turli xil va ehtimol

monopoliya asosidagi interfeys va aloqa protokollari bilan ta’minlangan maxsus qurilmalar mavjud.

Shuning uchun interfeys va ma’lumotlarni yig‘ishni tizimga yanada chuqurroq yuborishdan oldin unifikatsiya qilish muhimdir. Bunday unifikatsiya quyi bog‘lanish arxitektura qoidasiga rioya qilishdan tashqari, qurilmalarni alohida va butun bir tur sifatida qo‘shish, olib tashlash yoki o‘zgartirishni osonlashtiradi. Tizimning boshqa qurilma qismlarini faolsizlantiradi va uning dastur shaklida qurilmani almashtirishda tizimning fizik pog‘onasidan tashqarida birorta ham kod satrini o‘zgartirishni talab qilmaydi.

Shuning uchun fizik pog‘onaning muhim qismi - bu shlyuz hisoblanadi. Bu komponent dastlab qurilmalardan ma’lumotlarni yig‘adi va uni tizimning ichida bir xil usulda yuborish uchun past darajali transformatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi. Shlyuz juda ko‘p qurilmaga bog‘liq bo‘lib, qurilma turlaridagi har qanday o‘zgarishda o‘zgartirishlarni talab qiladi.

Albatta, konseptual jihatdan ba’zi boshqa qismlar ham, ayniqsa ma’lumot beruvchi qurilmalar sifatida va fizik qurilmalar sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin, masalan, shaxsning kun tartibi, VoIP orqali qo‘ng‘iroq qilish jarayoni yoki tizimdan tashqaridan kelgan elektron xabar. Tez-tez bunday voqealar dastlab “yuqori”dan, ya’ni foydalanuvchi pog‘onasidan yoki hatto keng qamrovli boshqaruv pog‘onasi yoki fikrlash pog‘onasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish nuqtasi orqali tizimga kiritiladi va qayta ishlanadi.

Keng qamrovli boshqaruv pog‘onasi

Keng qamrovli boshqaruv pog‘onasi butun tizimning boshqaruvchisi hisoblanib, boshqa barcha komponentlarning asosiy qo‘llab-quvvatlovchisidir. Shuningdek, u asosiy ma’lumot oqimlari va ma’lumot saqlash kanallarini o‘z ichiga oladi va ba’zi jihatdan ushbu pog‘ona ikki xil infrastrukturani (masalan, fizik va fikrlash pog‘onasi komponentlarini) birlashtiradi va ularni tushunishda yordam beradi.

Bu pog‘onaning bir nechta asosiy komponentlari mavjud va ularning har biri bir aqlli muhit tizimida deyarli muqarrar mavjud bo‘ladi.

Bilimlar bazasi. Bilim bazasi komponentining vazifasini tahlil etamiz. Tizimning ma’lumotlar bazasi ushbu komponentga tegishli bo‘lib, ba’zi tizimlar uchun ushbu komponent ma’lumotlar bazasi bilan sinonim bo‘ladi. Bilimlar bazasida 3 xil ko‘rinishdagi ma’lumotlar saqlanadi:

- Statik ma’lumotlar;
- Dinamik ma’lumotlar;
- Natijaviy (qayta ishlangan) ma’lumotlar

Birinchi tur - bu qurilmalar haqida statik ma’lumotlar. Bu tizimda mavjud bo‘lgan qurilmalar turlari, ularning aloqa protokollari, ular sensorlar yoki harakatlantirgichlar ekanligi, ular taqdim etadigan vazifalar tuzilishi yoki ularga o‘rnatilishi mumkin bo‘lgan holatlar kiradi.

Bilimlar bazasining ikkinchi turdagi ma’lumoti dinamikdir va bu yuqori chastotada o‘zgaradigan ma’lumotlarni, masalan, muhitning joriy holati, qurilmalar yoki bajarilgan buyruqlarni anglatadi. Ko‘plab tizimlar ushbu turdagi ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tegishli komponentlarga yuborishni afzal ko‘rishadi. Shuningdek, dinamik ma’lumotlarni uzatish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa bilimlar bazasidan tashqarida bo‘lsa ham, ma’lumotlarni saqlash va keyinchalik qayta olish va qayta ishlash uchun bilimlar bazasiga ham yuboradigan dublikat aloqa bo‘lishi kerak.

Nihoyat, bilimlar bazasidagi oxirgi turdagi ma’lumotlar deyarli eksklyuziv tarzda fikrlash

pog‘onasida ishlatiladi, chunki bu yerda yuqori darajadagi fikrlash uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlar mavjud. Bu yerda ma’lumotlar bazasi tizim qanday vaziyatdan foydalanishiga katta darajada bog‘liq. Masalan, ontologiyaga asoslangan tizimlar uchun, ThinkHome (Reinisch, Kofler, & Kastner, 2010) kabi, bu tizim va muhitning ontologiyasini yaratadi.

Vaziyat (Kontekst). Keng qamrovli boshqaruv pog‘onasining keyingi komponenti kontekst hisoblanadi. Kontekstning asosiy vazifasi qurilmalardan yig‘ilgan past darajali qayta ishlanmagan ma’lumotlarni yuqori darajali ma’lumotlarga aylantirishdir, bu esa fikrlash pog‘onasida foydalanish uchun mos keladi.

Bunday qayta ishlashning bir turi ma’lumotlarni inkapsulyatsiyalashdir. Masalan, akustik sensor kabi ba’zi sensorlar juda yuqori chastotada ma’lumot yuboradi. Yuqori darajadagi komponentlar bunday batafsil ma’lumotlarga muhtoj bo‘lmasligi mumkin. Ayrim soddalashtirilgan tizimlar faqat tovush borligi yoki yo‘qligi yoki tovush darajasini bilishni xohlashi mumkin, shuning uchun ko‘p miqdordagi ma’lumot uzatishlarni vaziyat (kontekst) bosqichida ma’lumotlarni birlashtirish orqali va faqat natijalarni tizimning yuqori qismiga yuborish orqali amalga oshirish mumkin. Bu esa tizim resurslaridan oqilona foydalanish qoidasiga to‘g‘ri keladi va tizim xotirasidan imkon qadar kam joy egallaydi.

Amalga oshirish. Ijro komponenti ma’lum ma’noda kontekstning to‘liq teskarisi hisoblanadi. Ijroning vazifasi fikrlash pog‘onasidan qabul qilingan harakat maqsadlarini qurilmalarga yuborilishi mumkin bo‘lgan ijro etiladigan harakatlarga aylantirishdir. Vazifaga qo‘shimcha tarzda qurilmalar tomonidan buyruqlarning to‘g‘ri bajarilishini nazorat qilish ham yuklanadi.

Tashxis. Nihoyat, keng qamrovli boshqaruv pog‘onasining oxirgi komponenti tashxis komponentidir. Bu komponent ixtiyoriy hisoblanadi, ya’ni ba’zi tizimlar uni aniq amalga oshirishni tanlamaydilar, ayniqsa aqlli muhitni rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida. Komponentning vazifasi sensorlardan ma’lumotlarni o‘qishni va ijro natijalarini kuzatish, qurilmalarning to‘g‘riligini tekshirish va iloji boricha har qanday xatolik va vaziyatlarni aniqlashdir. Masalan, ko‘plab batareyali qurilmalar batareya quvvati past bo‘lganda noto‘g‘ri ma’lumotlar yuborish ehtimoliga ega. Agar erta aniqlanmasa, bu fikrlash darajasida katta muammolarga olib kelishi mumkin.

Fikrlash pog‘onasi

Fikrlash pog‘onasi tizimning domen darajasidagi mantig‘ni o‘z ichiga oladi. Har bir aqlli muhit loyihasi muhit qanday vaziyat va harakatlarni amalga oshirish haqida qaror qabul qilishi kerakligi to‘g‘risida o‘z g‘oyalariga ega bo‘lishi kerak.

Vaziyatga sezgir tizimlar tadqiqotlarining ko‘plab yillari davomida domen darajasidagi ma’lumotlarni modellashtirishning turli usullari ishlab chiqildi, ba’zilari umumiy, ba’zilari esa tizim hal qilishga mo‘ljallangan aniq vazifaga qaratilgan.

Turli vaziyatga sezgir tizim modellarining batafsil tahlili va misoli (Bettini va boshqalar, 2010)da taqdim etilgan. Vaziyatni tasvirlash modelini aniq tanlash, tizimning o‘rganish, faoliyatni tanish va qaror qabul qilish qobiliyatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun bu aqlli muhit tizimining dastlabki loyihasida qilinadigan eng muhim tanlovlardan biridir.

Biz bu pog‘onani uch komponentga ajratdik, ammo kelajakdagi aqlli muhit loyihalari bu komponentlarning har qanday kombinatsiyasini turli usullarda o‘z ichiga olishi mumkin.

O‘rganish. O‘rganish komponenti kirish ma’lumotlariga asoslanib, eng yaxshi qarorlar va harakatlarni avtomatik ravishda o‘rganishga javobgardir, bu real vaqt ma’lumotlari yoki oldin yig‘ilgan statik ma’lumotlar bo‘lishi mumkin.

O‘rganish komponenti tizimdagi boshqa barcha komponentlar orasida biroz maxsus o‘rinni egallaydi. Bir tomondan, bu komponent ixtiyoriydir, ya’ni masalan, u qoida asosidagi tizim bo‘lsa, hech qanday o‘rganishni qo‘shmasdan aqlli muhit tizimini qurish mumkin. Boshqa tomondan, agar komponent mavjud bo‘lsa, u tizimdagi eng muhim markaziy o‘rinlardan birini egallaydi.

Ushbu komponentning asosiy vazifasi mashinani o‘rganishdir. Mashinani o‘rganish, sun’iy neyron tarmoqlari, vektor mashinalarini qo‘llab-quvvatlash, qarorlar daraxtlari, genetik algoritmlar, kuchaytirilgan o‘rganish, turli klasterlash texnikalari orqali aqlli muhit tizimlarini aqliy jihatdan rivojlantirib yanada intellektual qiladi.

Faoliyatni aniqlash. Faoliyatni aniqlash komponenti kontekstdan joriy holat haqida ma’lumot oladi va muhit haqida ko‘proq yuqori darajadagi ma’lumotni tasniflash va aniqlash uchun ichki bilimni qo‘llaydi. Masalan, kontekst xonada harakat borligini ko‘rsatuvchi harakat sensorining o‘qishini yuborgan bo‘lsa ham, faoliyatni aniqlash bu xonada biror kishining mavjudligiga mos kelishini tekshiradi. Faoliyatni aniqlash ovoz, video yoki tasvirni tanishni o‘z ichiga olishi mumkin. Ko‘pincha u faoliyatni tasniflash va tanish uchun o‘rganish komponentidan olingan natijalardan foydalanadi.

Qaror qabul qilish. Qaror qabul qilish komponenti aqlli muhitni jim kuzatuvchidan qat’iy harakat qiluvchiga aylantiradi. U berilgan bilimlar bilan berilgan vaziyatda qanday harakatlar bajarilishi kerakligini hal qiladi.

Faoliyatni aniqlash va o‘rganish komponentlari singari, qaror qabul qilish komponenti ko‘plab turli shakllarda qo‘llaniladi. Foydalanilishi mumkin bo‘lgan usullar orasida optimallashtirish nazariyasi, rejalashtirish va jadval tuzish, cheklovlarni qondirish, qidiruv texnikalari, mantiqiy fikrlash, ontologik fikrlash, noto‘g‘ri fikrlash va boshqalar bor.

Foydalanuvchi pog‘onasi

Ko‘plab loyihalar foydalanuvchilar uchun alohida maxsus e’tiborni qaratmasdan, o‘z arxitekturalarida ular uchun faqatgina komponentning bir qismi sifatida foydalanuvchi interfeysi belgilab qo‘yilgan. Biz buni namunaviy arxitekturada alohida bag‘ishlangan pog‘ona sifatida ko‘rib chiqish kerakligini ta’kidlaymiz.

Foydalanuvchi pog‘onasi tizimni foydalanuvchiga ko‘rsatadi va tizimni o‘zgartirish va sozlash, xatolarni tuzatish, tizimning qarorlarini bekor qilish va boshqa ko‘plab imkoniyatlarni beradi.

Pog‘onaning birinchi komponenti muhit ma’lumotidir. Bu kuzatuvchi komponent bo‘lib, o‘z ma’lumotlarini 3 ta manbadan oladi:

- Dinamik ma’lumotlardan;
- Vaziyatdan (kontekstdan);
- Faoliyatni aniqlash natijalaridan.

Foydalanuvchi pog‘onasining ikkinchi komponenti bilimlar bazasi ma’lumotidir. Qurilmalar holati va ularning konfiguratsiyasi, mumkin bo‘lgan harakatlar haqida statik ma’lumotlar foydalanuvchi uchun asosiy qimmatli ma’lumot sanaladi. Bilimlar bazasi ma’lumoti asosan statik axborot, qurilma konfiguratsiyalari va qurilmaning umumiy tavsifi kabi ma’lumotlar bilan boyitiladi.

Foydalanuvchi pog‘onasining navbatdagi komponenti bu tizim monitori hisoblanadi. Barcha oldingi komponentlardan farqli ravishda, bu komponent domen va muhit haqida emas, balki o‘z tizimi haqida ma’lumot ko‘rsatadi. Masalan, komponentlarning yaroqlilik holati,

ularning ishlash koʻrsatkichlari, aniqlangan holat oʻzgarishlari yoki xatolar, va hokazolar. Bu, shuningdek, qurilmalardagi aniqlangan xatolarni oʻz ichiga oladi. Bunda qurilma toʻgʻri ishlayotganini yoki rostdan ham oʻzgartirilishi yoki ta’mirlanishi kerakligini tekshirish uchun foydalanuvchining aralashuvini talab qilishi mumkin.

Foydalanuvchi pogʻonasining oxirgi komponenti fikrlash natijalari hisoblanadi. Ushbu komponent orqali ma’lum bir qaror tizim tomonidan nima uchun qabul qilinganini koʻrsatadi. Masalan, agar tizim ma’lum bir harakatni bajarishga qaror qilsa, bu komponent qaysi qoidalar aniq faollashtirilganini koʻrsatadi. Bu yerda fikrlash pogʻonasining barcha komponentlaridagi ma’lumotlarni, jumladan qaror qabul qilish, oʻrganish va hatto faoliyatni aniqlash komponentlaridan ma’lumotlarni qayta ishlaydi. Fikrlash natijasi komponenti qaror qanday va nega qabul qilinganini foydalanuvchiga tushuntiradi. Ushbu komponent asosan foydalanuvchi uchun faol algoritm va qoidalar, bajarilgan harakatlarning sabablari yoki qarorni bekor qilish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar

1. Aiyello, M., Aloise, F., Baldoni, R., Cincotti, F., Guger, C., Lazovik, A., et al. (2011). Smart homes to improve the quality of life for all. Engineyering in Medicine and Biology Sociyety, EMBC, 2011 Annual International Conference of the IEEE (pp. 1777-1780). IEEE.
2. Antoniou, G., & Harmelen, F. v. (2009). Web ontology language: Owl. In Handbook on ontologiyes (pp. 91- 110). Springer.
3. Apache Zookeyeper. (2010). Retriyeved 2013, from Apache Zookeyeper: http://zookeyeper.apache.org/
4. Bettini, C., Brdiczka, O., Henricksen, K., Indulska, J., Nicklas, D., Ranganathan, A., et al. (2010). A survey of context modelling and reasoning techniquyes. Pervasive and Mobile Computing , 6(2), 161-180.
5. Beywatch. (2008). Retriyeved 2013, from Beywatch project: http://www.beywatch.eu/
6. Bliyek, F., van den Noort, A., Roossiyen, B., Kamphuis, R., de Wit, J., van Der Velde, J., et al. (2010). PowerMatching City, a living lab smart grid demonstration. Innovative Smart Grid Technologiyes Conference Europe (ISGT Europe) (pp. 1-8). IEEE.
7. Callaghan, V., Clarke, G., Colley, M., Hagras, H., Chin, J. S., & Doctor, F. (2004). Inhabited intelligent environments. BT Technology Journal , 22(3), 233-247.
8. Capodiyeci, N., Pagani, A., Cabri, G., & Aiyello, M. (2011). Smart meter aware domestic energy trading agents. Proceyedings of the 2011 workshop on E-energy market challenge (pp. 1-10). ACM.
9. CASAS. (2008). Retriyeved 2013, from CASAS project: http://ailab.wsu.edu/casas/

A COMPARATIVE ANALYSIS OF TRADITIONAL AND DEEP LEARNING-BASED APPROACHES FOR FACE DETECTION: PERFORMANCE, ADVANCEMENTS, AND CHALLENGES

Authors

Elmurod Urinov

Department of Communication and Digital Technologies, University of Management and Future Technologies, Tashkent,

100208, Uzbekistan;
u.elmurod1988@gmail.com

Nurbek Kholmurodov

Department of Communication and Digital Technologies, University of Management and Future Technologies, Tashkent,

100208, Uzbekistan;

**Corresponce: u.elmurod1988@gmail.com*

Abstract: This thesis presents a comprehensive survey and analysis of various neural network architectures utilized in the domain of face detection, focusing specifically on their effectiveness in handling occlusion. The research investigates the challenges posed by occlusion in face detection and examines state-of-the-art neural network models designed to address this issue. The study explores the strengths, limitations, and advancements made in these architectures concerning occlusion handling.

Keyword: Face detection, traditional approaches, deep learning, Viola-Jones, CNN, HOG.

Introduction

Face detection, a pivotal component of computer vision technology, plays a fundamental role in identifying and localizing human faces within images or video frames. Its ubiquitous relevance spans across diverse domains such as security surveillance, entertainment applications, healthcare diagnostics, personalized marketing, and human-computer interaction. While the significance of accurate face detection cannot be overstated in these realms, the efficacy of this technology encounters numerous hurdles, especially in scenarios where faces are partially obscured or occluded.

The evolution of face detection algorithms has significantly enhanced the precision and efficiency of identifying faces in varying environmental conditions and contexts. Despite these advancements, the detection of faces under occlusion remains a persistent challenge, impeding the technology's reliability in real-world applications. Occlusion, stemming from varied factors like objects, hands, facial accessories, or even natural facial expressions, poses a substantial obstacle to accurate face detection. Addressing occlusion in face detection is imperative for the technology's robustness and practical utility across domains. Overcoming occlusion demands the development and deployment of sophisticated algorithms and neural network architectures capable of discerning and reconstructing obscured or partially visible facial features.

This survey paper endeavors to comprehensively explore the landscape of face detection under occlusion. It aims to analyze and evaluate a spectrum of neural network architectures and methodologies specifically designed to mitigate the challenges posed by occlusion. By synthesizing existing research and advancements, this paper aims to provide insights into the strengths, limitations, and future directions in the quest for more effective face detection under occlusion.

Exploring Face Detection Techniques

2.1 Traditional approaches

The Viola-Jones algorithm, pioneered by Paul Viola and Michael Jones, stands out for its adeptness in object detection [1]. It functions through the utilization of Haar-like features, which are rectangular filters designed to detect pixel intensity variations across various sections of an image. These features collectively form a potent classifier capable of efficiently distinguishing between facial and non-facial elements. Employing a cascade of classifiers, the algorithm strategically narrows down regions likely to contain faces, thus notably decreasing computation time.

The HOG (histogram oriented gradient) algorithm, developed by Navneet Dalal and Bill Triggs, relies on the distribution of gradient orientations in localized regions of an image. It computes histograms of gradient orientations, which are representations of the local edge directions, and then creates a descriptor capturing the distribution of these gradients. HOG is robust to changes in illumination and background clutter, making it effective for face detection [2].

Each of these traditional algorithms has its strengths. Viola-Jones is known for its speed, HOG for its robustness against variations in lighting and background, and Haar-like features for their simplicity and effectiveness in identifying distinctive patterns in an image. However, they also have limitations. Viola-Jones can sometimes struggle with pose variations and complex backgrounds. HOG, while robust, might not perform as well with extreme variations in facial expressions or occlusions. Haar-like features might oversimplify certain facial characteristics,

limiting their accuracy in complex scenarios.

These traditional techniques laid the groundwork for more advanced and robust face detection methods by providing insights into feature extraction and classification. Modern approaches often integrate deep learning models, leveraging convolutional neural networks (CNNs) and other sophisticated architectures to achieve higher accuracy and adaptability in various conditions.

2.2 Neural networks based approaches

Multi-Scale Fully Convolutional Network (MS-CNN). This is a specialized neural network architecture tailored for precise face detection across multiple scales within an image canvas. This architecture's core strength lies in its ability to handle faces appearing at various sizes and resolutions. By employing a fully convolutional structure, the MS-CNN operates on different scales of the input image, allowing it to detect faces at varying sizes simultaneously. This network architecture is designed to extract hierarchical features from different layers, capturing facial characteristics at multiple levels of abstraction. This comprehensive feature extraction process enables the network to discern faces amidst diverse scales and complexities. Notably, the MS-CNN integrates contextual information from these varied scales, improving its accuracy even in scenarios involving cluttered backgrounds or occlusions that might obscure parts of the face [3].

Typically leveraging an anchor-based approach, the MS-CNN predicts bounding boxes at different scales and aspect ratios across the image, aiding in precisely localizing potential face regions. During training, the network learns to optimize its parameters by minimizing the disparity between predicted bounding boxes and annotated face locations within labeled datasets. MS-CNN has demonstrated promising performance in face detection tasks, exhibiting high accuracy across various benchmarks. Its multi-scale approach addresses the challenge of identifying faces regardless of their sizes or orientations, making it suitable for real-world applications where faces exhibit diverse perspectives and appearances. This architecture represents a significant stride in advancing the accuracy, efficiency, and adaptability of face detection models under varied conditions.

Face Detection Algorithm Based on Double-Channel CNN. In literature [4] proposed a model architecture based on VGGNet and residual network. The main reason for choosing VGGNet in this paper is its excellent performance in image feature extraction, and it is easy to modify and train. Residual network is used because it is easy to optimize and can extract face features well with a simple modification. The overall framework of the model is shown in Figure 1. The occlusion perceptron network is used to extract facial features in fewer occlusion regions. The main function of the Region Decision Unit (RD-Unit) is to determine whether the occlusion ratio of the subregion exceeds the set value. When the occlusion of a certain area exceeds the set proportion, the feature vector of the area is discarded. Several regional occlusion judgment units are integrated into the VGG16 network to screen out the subregions with less occlusion. Therefore, the occlusion perceptron network can extract the face related features in fewer occlusion areas. Residual neural network (RNN) is applied to extract full-face features. The output of the two networks is fused with feature vectors by the single-factor weighting method, and the fused feature vectors will be used for face detection.

Multi-task Cascaded Convolutional Networks (MTCNN) is a popular deep learning-based algorithm used for face detection. It's a multi-stage framework designed to detect faces in images while handling variations in pose, scale, and lighting conditions. MTCNN consists of three stages, each focusing on a specific aspect of face detection [5]:

Stage 1: Proposal Network (P-Net). In this stage generates candidate facial regions likely to contain faces. It employs a fully convolutional network to scan the image at multiple scales, detecting faces of different sizes. Utilizes a sliding window technique to propose candidate bounding boxes with associated probabilities for face regions. Works efficiently in identifying potential face locations but might produce false positives;

Stage 2: Refinement Network (R-Net). In this stage refines the candidate face regions obtained from the first stage. Filters out false positives by performing more precise bounding box regression. Evaluates the proposed regions, discarding inaccurate regions and further narrowing down potential face regions. Improves the accuracy of face localization by refining the bounding boxes;

Stage 3: Output Network (O-Net). The final stage performs further refinement and detailed facial feature extraction. Detects facial landmarks (such as eyes, nose, and mouth) within the bounding boxes identified by the previous stages. Outputs the final bounding boxes for faces along with the precise facial landmarks.

MTCNN is widely used in applications requiring accurate and robust face detection, such as facial recognition systems, surveillance, and biometric authentication. However, the choice of a face detection algorithm depends on factors like accuracy, speed, and resource constraints specific to the intended application.

Conclusion

In the domain of face detection, traditional methods like Viola-Jones and Histogram of Oriented Gradients (HOG) offer simplicity and speed but struggle with handling diverse conditions. Contrastingly, neural network-based algorithms such as Multi-Stage Cascaded Convolutional Networks (MTCNN), Double-Channel CNN, and Multi-Scale Convolutional Neural Network (MS-CNN) provide robustness and accuracy, leveraging deep learning techniques to address variations in scale, pose, and lighting. However, their effectiveness often comes at the cost of computational intensity and the need for substantial labeled datasets for training. Each approach presents a trade-off between speed, accuracy, and resource requirements, catering to specific application needs within face detection tasks.

References

1. Viola, P.; Jones, M. (2001). "Rapid object detection using a boosted cascade of simple features". Proceedings of the 2001 IEEE Computer Society Conference on Computer Vision and Pattern Recognition. CVPR 2001. Vol. 1. IEEE Comput. Soc.
2. William T. Freeman, Michal Roth, "Orientation Histograms for Hand Gesture Recognition", Tech. Rep. TR94-03, Mitsubishi Electric Research Laboratories, Cambridge, MA, December 1994.
3. S. R. Dubey, "Local directional relation pattern for unconstrained and robust face retrieval," Multimedia Tools and Applications, vol. 78, no. 19, pp. 28063–28088, 2019.
4. H. Li, Z. Lin, X. Shen, J. Brandt and G. Hua, "A convolutional neural network cascade for face detection," 2015 IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR), Boston, MA, USA, 2015, pp. 5325-5334, doi: 10.1109/CVPR.2015.7299170.
5. J. Xiang and G. Zhu, "Joint Face Detection and Facial Expression Recognition with MTCNN," 2017 4th International Conference on Information Science and Control Engineering (ICISCE), Changsha, China, 2017, pp. 424-427, doi: 10.1109/ICISCE.2017.95.

Mualliflar

Farxod Meliyev*

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti, Toshkent, O'zbekiston; farhodtorg@gmail.com

Mavluda Nugmanova

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti, Toshkent, O'zbekiston;

**Mas'ul: farhodtorg@gmail.com*

GISTOLOGIK TASVIRLARDAGI MAVJUD SOHALARNI O'LCHASH USULI

Annotatsiya: Mazkur ishda gistologik tasvirlarni segmentlash va ularda mavjud sohalarni belgilab, ularning o'lchamlarini aniqlash usullari tadqiq qilingan. Gistologik tasvirlarni bo'sag'aviy segmentlash usuli tadqiq qilinib, tasvir chegaralarida bo'lgan va tasvirda to'liq nomoyon bo'lmagan sohalarni olib tashlash usuli taklif etilgan. Tasvirdagi sohalarga nishonlar qo'yish, ularni turli ranglarga bo'yash, o'lchamlarini turli xarakteristikalar bo'yicha aniqlash usuli keltirilgan.

Kalit so'zlar: gistologik tasvir, tasvirlarga raqamli ishlov berish, segmentlash, bo'sag'aviy funksiya, sinflararo dispersiya.

METHOD OF MEASURING AVAILABLE AREAS IN HISTOLOGICAL IMAGES

Abstract: In this work, the methods of segmenting histological images and determining the areas present in them and determining their sizes are studied. The method of threshold segmentation of histological images is studied, and a method of removing areas that are on the borders of the image and are not completely visible in the image is proposed. There is a method of marking areas in the image, coloring them in different colors, and determining their size according to various characteristics.

Key words: histological image, digital image processing, segmentation, threshold function, interclass dispersion.

Authors

Farkhod Meliyev

Scientific Research Institute for Development of Digital Technologies and Artificial Intelligence, Tashkent, Uzbekistan;

farhodtorg@gmail.com

Mavluda Nugmanova

Scientific Research Institute for Development of Digital Technologies and Artificial Intelligence, Tashkent, Uzbekistan;

**Correspondence: farhodtorg@gmail.com*

Kirish

Zamonaviy tibbiy tasvirlarga ishlov berish usullari tashxis aniqligi va samaradorligini oshirishda, ayniqsa gistologiya sohasida muhim rol o‘ynaydi [1]. Hozirgi tibbiy diagnostikada bemorlarning to‘qimalari va hujayralari haqida ma’lumot olish uchun gistologik tasvirlar keng qo‘llaniladi. Tibbiyot sohasida tasvirlarni olishning raqamli gistologiya kabi yuqori texnologiyali usullari paydo bo‘lishi bilan olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishning avtomatlashtirilgan usullariga ehtiyoj ortdi [2,3]. Ushbu sohadagi asosiy muammolardan biri gistologik tasvirlarda biologik tuzilmalar hajmi va chegaralarini avtomatlashtirilgan tarzda aniqlashdir. Gistologik tasvirlarda sohalarning o‘lchamini aniqlash ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonidagi asosiy qadam bo‘lib, uni avtomatlashtirish tibbiy tadqiqotlarning aniqligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Biroq, gistologik tasvirlarda biologik sohalarning aniq va samarali o‘lchamlarini aniqlash diagnostika va davolashni rejalashtirish uchun aniqroq ma’lumotlarni taqdim etish uchun muhim masala bo‘lib qolmoqda.

Masalaning qo‘yilishi

Gistologik tasvirni $M \times N$ o‘lchamdagi I matritsa shaklida olib, bunda har bir I_{ij} element pikselning (i, j) - pozitsiyasidagi intensivligini ifodalaydi. B - tasvirni bo‘sag‘aviy segmentlash orqali olingan binar tasvir bo‘lsin, bunda B_{ij} ning har bir elementi piksel tanlangan sohaga tegishli bo‘lsa 1 ga, aks holda 0 ga teng.

Sohalarning o‘lchamlarini aniqlash uchun quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

1. R bo‘sag‘aviy segmentlash bilan aniqlangan sohalar to‘plami bo‘lsin. Har bir $r \in R$ soha B binar tasviridagi piksellar to‘plamini ifodalaydi.

$$B_{ij}=\begin{cases}1, \text{agar } I_{ij} \geq T\\ 0, \text{agar } I_{ij} < T\end{cases} \quad (1)$$

2. Har bir $r \in R$ soha uchun piksellar soni, ya’ni uning A_r o‘lchamini aniqlash kerak bo‘lsin:

$$A_{r_i} = \sum_{(i,j)\in r_i} B_{ij},$$

Maqsad $R = \{r_1, r_2, \dots, r_k\}$ to‘plamning gistologik tasvirdagi o‘lchamlari biologik tuzilmalarga mos keladigan sohalarini o‘z ichiga olishini ta’minlaydigan T bo‘sag‘aviy qiymatni topishdan iboratdir.

Taklif etilayotgan usullar

Bo‘sag‘aviy segmentatsiya

Bo‘sag‘aviy segmentatsiyaning asosiy g‘oyasi yorqinlik yoki rang qiymati uchun shunday bo‘sag‘aviy qiymatni belgilashdan iborat bo‘ladiki, unda piksel u yoki bu sinfga tegishli deb hisoblanadi [4]. Zamonaviy masalalarda tasvirni binarizatsiya qilish uchun optimal bo‘sag‘aviy qiymatini avtomatik ravishda hisoblash kerak bo‘ladi. Bunday masalalarda tasvirni binarlashtirishning bo‘sag‘aviy qiymatini avtomatik hisoblash uchun Otsu usuli keng qo‘llaniladi [5]. Otsu piksellarning ikkita sinfi: fon va ob’ekt (yoki fon va old fon) o‘rtasidagi ajratishni maksimal darajada oshiradigan mezonni taklif qildi [6]. Matematik jihatdan u sinf ichidagi dispersiyani minimallashtirish va sinflararo dispersiyani maksimallashtirishga asoslanadi va uni quyidagi bosqichlar bilan tavsiflash mumkin:

1. Har bir yorqinlik darajasining paydo bo‘lish ehtimoli p(i)ni hisoblash:

$$p(i) = \frac{n_i}{N}, \quad (2)$$

bunda n_i - yorqinlik darajasi i bo‘lgan piksellar soni, N - tasvirdagi piksellarning umumiy soni.

2. Ikki $w_0(t)$ va $w_1(t)$ sinflar uchun umumiy ehtimollikni hisoblash:

$$w_0(t) = \sum_{i=0}^{t} p(i),\ w_1(t) = \sum_{i=t+1}^{L-1} p(i), \quad (3)$$

bunda $w_0(t)$ - yorqinlik darajasi t dan kam bo‘lgan barcha piksellarning umumiy ehtimoli, $w_1(t)$ - yorqinlik darajasi t dan katta bo‘lgan barcha piksellarning umumiy ehtimoli, L - yorqinlik darajalarining umumiy miqdori.

3. Ikki $\mu_0(t)$ va $\mu_1(t)$ sinf uchun o‘rtacha qiymatlarni hisoblash:

$$\mu_0(t) = \frac{1}{w_0(t)} \sum_{i=0}^{t} i \cdot p(i),\ \mu_1(t) = \frac{1}{w_1(t)} \sum_{i=t+1}^{L-1} i \cdot p(i) \quad (4)$$

4. Ikki $\sigma_0^2(t)$ va $\sigma_1^2(t)$ sinf uchun sinf ichidagi dispersiyani hisoblash:

$$\sigma_0^2(t) = \frac{1}{w_0(t)} \sum_{i=0}^{t} (i - \mu_0(t))^2 \cdot p(i),$$

$$\sigma_1^2(t) = \frac{1}{w_1(t)} \sum_{i=t+1}^{L-1} (i - \mu_1(t))^2 \cdot p(i). \quad (5)$$

5. Sinflararo dispersiyani hisoblash $\sigma^2(t)$:

$$\sigma^2(t) = w_0(t) \cdot w_1(t) \cdot (\mu_0(t) - \mu_1(t))^2 \quad (6)$$

6. Otsu mezoniga ko‘ra bo‘sag‘aviy qiymatni tanlash:

$$t^* = \arg\max_t \sigma^2(t) \quad (7)$$

6 - qadamda olingan t^* bo‘sag‘aviy qiymat tasvirni binarizatsiya qilish uchun optimal bo‘sag‘aviy qiymat bo‘ladi. Yorqinlik darajasi t^* dan kam yoki unga teng bo‘lgan piksellar bir sinf, yorqinligi darajasi t^*dan kattaroq piksellar boshqa sinf hisoblanadi.

Gistologik tasvirlar murakkab tarkibga ega bo‘lganligi va to‘qimalarning mikroskopik tasvirlarini ifodalaganligi sababli, bunday tasvirlarda ba’zi artefaktlar, shovqinlar, tasvirga to‘liq yoki qisman kirmagan ob’ektlarning sohalari, shuningdek, tasvirning chegaralarga tegib qolgan sohalar bo‘lishi mumkin [7]. Noaniqliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun odatda bunday sohalarni olib tashlash tavsiya etiladi. Bunday sohalarni olib tashlash uchun quyidagi usuldan foydalanish mumkin.

Tasvir chegarasiga tegib turgan sohalarni olib tashlash usuli

Faraz qilaylik Z tasvir berilgan bo‘lib, $A \times B$ uning o‘lchamlari bo‘lsin, unda Z_{ij} pikselning (i,j) pozitsiyadagi intensivligini ifodalasin. Intensivlik qiymatlari [0, 1] oraliqda deb qabul qilinadi, bunda 0 qora (fon), 1 oq (ob’ekt).

Tasvir chegarasiga tegib turgan sohalarni olib tashlash usuli quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Chegaradagi sohalarni aniqlash:Binar tasvirni belgilab chiqamiz, ya’ni piksel sohaga tegishli bo‘lsa, V_{ij}=1 deb olinadi, aks holda V_{ij}=0 ga teng.

$$V_{ij} = \begin{cases} 1, \text{agar } Z_{ij} = 1 \text{ va } i = 0 \text{ yoki } i = A - 1 \text{ yoki } j = 0 \text{ yoki } j = B - 1 \\ 0, \text{aks holda.} \end{cases}$$

- Sohalarni olib tashlash:Bunga ushbu sohalarning piksel qiymatlarini 0 ga tenglashtirish orqali erishish mumkin.

$$Z_{ij} = \begin{cases} 0, \text{agar } V_{ij} = 1 \\ Z_{ij}, \text{aks holda.} \end{cases} \quad (8)$$

Shunday qilib, matematik jihatdan, bu usul tasvir chegarasidagi sohalarga tegishli piksellar qiymatlarini nolga tenglashtirish uchun binar niqob [9] bilan elementlarni ko‘paytirish operatsiyasi qo‘llanadi.

Mavjud sohalarni nishonlash (belgilash) usuli

Rasmning chetidagi sohalar olib tashlangandan so‘ng, tasvirdagi qolgan sohalarni nishonlash(belgilash)ni boshlash mumkin. "Nishonlash" har bir sohaga noyob yorliq (butun son) belgilashni anglatadi. Buni amalga oshirish uchun quyidagi usuldan foydalanish mumkin.

Q binar tasvir berilgan bo‘lib, har bir piksel $Q_{i,j}$ bilan belgilangan bo‘lsin, bunda i va j piksel koordinatalari.Shuningdek, ikkita funktsiya kiritamiz: $Y_{i,j}$ - (i, j) piksel nishonini (butun son) ifodalovchi funksiya va $H(i, j)$ - (i, j) pikselning qo‘shni piksellar to‘plamini saqlovchi funksiya bo‘lsin.

O‘zaro bog‘langan komponentlarni aniqlash:Piksellar qiymati 1 ga teng bo‘lib (sohaga tegishli), umumiy chegaraga ega bo‘lsa, ular o’zaro bog‘langan hisoblanadi.

Nishonlarni aniqlash:Nishonlash algoritmi o’zaro bog‘langan komponentlarga unikal nishonlar tayinlaydi. Har bir pikselning nishonini $Y_{i,j}$ bilan belgilaymiz.

Nishonlash algoritmi:$Y_{i,j} = 0 \; \forall \; (i, j) \in Q$ (barcha piksellar uchun).

Tasvir bo‘ylab yurish:Q dagi har bir (i, j) piksel uchun: Agar $Q_{i,j} = 1$ (piksel sohaga tegishli bo‘lsa) va $Y_{i,j} = 0$,Yangi nishonni o‘rnatish: $Y_{i,j} =$ yangi nishon.

Nishonlar interpolyatsiyasi: $H(i, j) \cap H(p, q) = \emptyset$ bo‘lgan har bir qo‘shni (p, q) piksel uchun:Agar $Q_{p,q} = 1$ va $Y_{p,q} \neq 0$ bo‘lsa, unda $Y_{i,j} = Y_{p,q}$ deb olinsin.

Takrorlashlar barcha piksellar ko‘rib chiqilgunga qadar takrorlanadi.

Natijada har bir sohasi noyob nishon bilan belgilangan yangi Y tasvirga ega bo‘lamiz.

Sohalarning turli xarakteristikalarini ajratib olish usuli

Nishonlangandan so‘ng, tasvirdagi sohalarning turli xarakteristikalarini ajratib olish mumkin. Ushbu ishda nishonlangan sohalardan quyidagi xarakteristikalar olinadi:

1. Soha yuzasi:S sohaning yuzasi - bu sohadagi piksellar soni.

$$S = \sum_{i,j} Z_{i,j}, \tag{9}$$

bunda $Z_{i,j}$ - (i, j) - pozitsiyasidagi piksel qiymati.

2. Sohaning massa markazi:Sohaning massa markazi C sohadagi barcha piksellar koordinatalarining o‘rtacha qiymati sifatida hisoblanishi mumkin.

$$C = \left(\frac{\sum_{i,j} i \cdot Z_{i,j}}{\sum_{i,j} Z_{i,j}}, \frac{\sum_{i,j} j \cdot Z_{i,j}}{\sum_{i,j} Z_{i,j}} \right) \tag{10}$$

3. Ekvivalent diametr:Ekvivalent diametr E ni soha bilan bir xil yuzaga ega bo‘lgan doira diametri sifatida hisoblash mumkin.

$$E = 2 \cdot \sqrt{\frac{S}{\pi}} \tag{11}$$

4. O‘rtacha intensivlik:O‘rtacha intensivlikni sohadagi barcha piksellarning o‘rtacha yorqinligi qiymati sifatida hisoblash mumkin.

$$T = \frac{\sum_{i,j} Z_{i,j}}{S} \tag{12}$$

5. O‘xshashlik:O‘xshashlik D sohaning qavariq ko‘pburchakka qanchalik o‘xshashligini aniqlaydi [10]. O‘xshashlik soha yuzasi S ning, uning qavariq ko‘pburchagi yuzasi $\mathbb{S}$ ga nisbatiga teng.

$$D = \frac{S}{\mathbb{S}} \quad (13)$$

Natijalar

Yuqoridagi usullarning ishlashi amalda eksperimental tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Eksperimental tadqiqot ob’ektlari sifatida inson o‘pkasining gistologik tasvirlari tanlangan(1-rasm).



1-rasm. Inson o‘pkasining gistologik tasviri:
(a) - rangli tasvir, (b) – segmentlangan tasvir, (c) - chegaraga tegib turgan sohalarni olib tashlanganidan keyin natija, (d) - sohalarini nishonlash natijasi .

1b-rasmda (2-7) formulalar yordamida ushbu tasvirning bo‘sag‘aviy segmentatsiyasi natijasi ko‘rsatilgan. Rasm segmentatsiyasidan so‘ng, yuqoridagi usul va (8) formuladan foydalanib, tasvir chegaralariga tegib turgan sohalarni olib tashlash mumkin. Olib tashlash natijasi 1c-rasmda ko‘rsatilgan.

Shundan so‘ng sohalarni nishonlashni boshlash mumkin, ya’ni har bir mintaqaga noyob nishon (butun son) belgilash mumkin. Buning uchun yuqorida tavsiflangan usuldan foydalanib, tasvir bo‘ylab to‘liq o‘tiladi va mavjud sohalarga nishonlar tayinlanadi, shu bilan birga ular turli xil ranglar bilan bo‘yaladi. Rasm sohalarini nishonlash natijasi 1d-rasmda ko‘rsatilgan.

Nishonlangandan so‘ng sohalardan, xarakteristikalar ajratilgan. 1-jadvalda birinchi va oxirgi beshta sohalarning xarakteristikalari ko‘rsatilgan.

1-jadval

Nishon	Soha o‘lchami(piksel)	Ekvivalent diametr	O‘rtacha intensivlik	O‘xshashlik
1	5	2.52	126.00	1.00
2	8	3.19	124.75	1.00
3	27	5.86	126.19	0.82
4	1	1.13	127.00	1.00
5	7	2.99	126.00	0.88
...	...	...	...	...
300	4	2.26	126.75	1.00

301	3	1.95	126.33	1.00
302	2	1.59	127.00	1.00
303	2	1.59	127.00	1.00
304	1	1.13	125.00	1.00

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tanlangan tasvirni tahlil qilishda usul uch yuzdan ortiq sohalarni aniqladi va nishonladi. Shuningdek, har bir sohaqadagi piksellar sonini (soha o‘lchami ustuni), soha bilan bir xil yuzaga ega bo‘lgan doira diametrini (ekvivalent diametr ustuni), soha ichidagi piksellarning o‘rtacha intensivligini (o’rtacha intensivlik ustuni) aniqlandi va o‘xshashlik (o‘xshashlik ustuni) bu sohaning qavariq shaklga qanchalik o‘xshashligini bildiradi, bunda 1 qiymati soha butunlay qavariq ekanligini bildiradi. Yuqoridagi usullardan foydalanishni avtomatlashtirish uchun Pythonda dasturiy vosita yaratildi, u yordamida tasvirlarni ochish, segmentlash, chegaralardagi sohalarni o‘chirish va sohalar haqidagi ma’lumotlarni filtrlash uchun ba’zi qiymatlarni o‘rnatish mumkin.

Xulosa

Ushbu ishda gistologik tasvirlardan sohalarni segmentlash va bu sohalardan ba’zi xarakteristikalarini ajratib olish masalasi ko‘rib chiqildi. Shu maqsadda keng qo‘llaniladigan va tibbiyot, biologiya va fan sohasidagi tadqiqotlar imkoniyatlarini kengaytiruvchi, to‘qimalar va hujayralar tuzilmalarini yanada chuqurroq o‘rganish imkonini beruvchi bo‘sag‘aviy segmentatsiya qo‘llanildi. Tasvirga to‘liq tushmagan yoki tasvir chegaralariga tegib turgan sohalarni olib tashlashning bosqichma-bosqich usuli tavsiflangan, shuningdek, segmentlangan sohalarni nishonlash va ulardan turli xil xarakteristikalarni olish usuli taklif etildi. Sohalarning olingan xarakteristikalari jadval shaklida keltirilgan. Ushbu usullardan foydalanishni avtomatlashtirish uchun gistologik tasvirlarni tahlil qilish uchun foydalaniladigan dasturiy vosita yaratildi.

Ta’riflangan segmentatsiya usullari, shuningdek, sohalarni nishonlash va ularning turli xarakteristikalarini olish uchun tavsiya etilgan usullar tibbiy diagnostika va ilmiy tadqiqotlarda muhim istiqbolga ega bo‘lgan tahlillarni avtomatlashtirish va aniqligini oshirishning muhim vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. S. Cohen, B. Wood, M. Bui. “Digital Pathology: Historical Perspectives, Current Concepts & Future Applications”. Springer, 2016.-116 p.
2. I. Bankman. Handbook of Medical Image Processing and Analysis, 2nd Edition - December 19, 2008. - 1000 p.
3. M. Zarella, C. Yeoh, D. Breen, F.Garcia, J.Anari, P. Ginter, B. Knudsen. A practical guide to whole slide imaging: a white paper from the digital pathology association // Archives of pathology & laboratory medicine, 2019,143(2), 222-234 pp.
4. R. Gonzalez, R. Woods. Digital Image Processing, 3rd edition, corrected and enlarged. Moscow: Technosphere, 2012. - 1104 p.
5. N. Otsu. A threshold selection method from gray-level histograms // IEEE transactions on systems, man, and cybernetics, 1979, 9(1), 62-66.
6. Абламейко С., Недзвед А. Обработка оптических изображений клеточной структуры в медицине. – Мн.: ОИПИ НАН Беларуси, 2005. – 156с.
7. M. Freeman. The Photographer’s Eye: Composition and Design for Better Digital Photos // Focal Press, 2007. – 192 p.

CHUQUR O‘QITISH ALGORITMLARI ASOSIDA KO‘ZI OJIZ INSONLAR UCHUN AQLLI BOSH KIYIM ISHLAB CHIQISH

Mualliflar

Muhriddin Umarov

Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar kafedrasi, “University of Management and Future Technologies” universiteti, Toshkent, 100208, O‘zbekiston;

muhriddin.umarov.1992@gmail.com

Farrux Axmedov

Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar kafedrasi, “University of Management and Future Technologies” universiteti, Toshkent, 100208, O‘zbekiston;

axmedovfarrux336@gmail.com

Jasurbek Djurayev

Dasturiy injiniringi kafedrasi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, 100200, Toshkent, O‘zbekiston;

jasrbek.djuraev.djn0926@gmail.com

**Mas’ul: muhriddin.umarov.1992@gmail.com*

Annotatsiya: So‘nggi yillarda Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari yuqori darajada rivojlandi va turli sohalarda, jumladan, banklarda, elektron pochta boshqaruvida, tibbiyotda va boshqa ko‘plab sohalarda qo‘llanilmoqda. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi ko‘rish qobiliyati zaif (ko‘r) insonlarga SI texnologiyalaridan foydalangan holda yordam berishdir. Ko‘rlik tabiiy hodisa, ammo ko‘r insonlarning dunyoni ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lgan insonlarga o‘xshash his qilishlariga to‘sqinlik qilmasligi zarur. Har xil to‘siqlar ularning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmasligi uchun ular shunday aniqlik bilan yurishi yoki kundalik vazifalarni bajarishlari kerak. Odatda, ko‘r inson to‘siqlarni aylanib o‘tish uchun oq tayoqdan foydalanadi. Texnologik taraqqiyot aqlli bosh kiyimlarni ishlab chiqish imkoniyatini taqdim etadi, bu ko‘zi ojiz insonlarga potensial xavflarni oldindan bilishga yordam beradi. Ushbu maqolada ko‘r insonlar yo‘llarni, obyektlarni va QR kodlarni aniqlashda duch keladigan qiyinchiliklar tahlil qilindi va olib borilayotgan tadqiqotlar taqdim etildi.

Kalit so‘zlar: ko‘zi ojiz inson, sun’iy intellekt, aqlli bosh kiyim, chuqur o‘qitish.

DEVELOPMENT OF SMART HEADWEAR FOR BLIND PEOPLE BASED ON DEEP LEARNING ALGORITHMS

Abstract: In recent years, Artificial Intelligence (AI) technologies have advanced greatly and are being used in various fields, including banking, email management, medicine, and many others. The main goal of this research is to help visually impaired (blind) people using SI technologies. Blindness is a natural phenomenon, but it should not prevent blind people from experiencing the world in the same way as sighted people. They need to walk or perform daily tasks with such precision that various obstacles do not hinder their development. Usually, a blind person uses a white cane to get around obstacles. Technological progress offers the possibility of developing smart headgear, which helps blind people to anticipate potential dangers. In this article, the difficulties faced by blind people in identifying roads, objects and QR codes were analyzed and ongoing research was presented.

Keywords: blind person, artificial intelligence, smart headgear, deep learning.

Authors

Mukhriddin Umarov

Department of Communication and Digital Technologies, University of Management and Future Technologies, Tashkent, 100208, Uzbekistan;

muhriddin.umarov.1992@gmail.com

Farrukh Akhmedov

Department of Communication and Digital Technologies, University of Management and Future Technologies, Tashkent, 100208, Uzbekistan;

axmedovfarrux336@gmail.com

Jasurbek Djuraev

Department of Software Engineering, Tashkent University of Information Technologies named after Mukhammad al-Khwarizmi,

Tashkent 100200, Uzbekistan;

jasrbek.djuraev.djn0926@gmail.com

** Correspondence: muhriddin.umarov.1992@gmail.com*

Kirish

Texnologiyalar bizning ishlash, yashash va muloqot qilish uslubimizni o‘zgartirdi. SI haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lmagan ko‘rish qobiliyati zaif insonlar ko‘plab veb-saytlarga kira olmaydi va mobil telefonlaridan foydalana olmaydi. Ko‘pgina Internet buyumlari ko‘rish qobiliyati zaif insonlar uchun mavjud emas [1]. SI hujjatlarni o‘qiy oladi va sarlavhalar, paragraflar va ro‘yxatlar kabi tizimli elementlarni tushuna oladi, shu bilan foydalanuvchilarga ovozli signallar yordamida hujjatlarni tezda boshqarish imkonini beradi. Shuningdek, u boshqa ilovalardagi fotosuratlarni ham taniy oladi [2].

Yigirma birinchi asrning eng e’tiborga molik yangiliklari orasida ko‘zi ojizlar insonlar uchun o‘zini bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish va texnik vositalardan mustaqil foydalanish imkonini beruvchi o‘zini o‘zi boshqaradigan va avtomatik transport vositalari muhim ahamiyatga ega. Xavfsizlik nuqtai nazaridan, sun’iy intellektga to‘liq ishonish mumkin emas, lekin u insonlarni qutqarish qobiliyatiga ega va to‘qnashuvlar hamda to‘siqlar oqibatlarini yumshatishga yordam beradi [3].

Foydali texnologiya jamiyat va insoniyatga foyda keltiradigan texnologiyadir. Ko‘zi ojiz insonlar kundalik vazifalarni bajarishda, ayniqsa harakatchanlik haqida gap ketganda, qiyinchiliklarga duch kelishadi, chunki ularning yo‘lida potensial xavfli to‘siqlar bo‘lishi mumkin. Odatda, ular yer yuzida harakat qilish va eng xavfsiz marshrutni topishga yordam berish uchun oq tayoqdan foydalanadilar. Oq tayoq foydali, ammo yaqin atrofdagi to‘siqlarni, masalan, ko‘cha to‘siqlarini aniqlash qiyin. Texnologiya insoniyat hayoti uchun tobora zarur bo‘lib borayotgan bugungi dunyoda oq tayoq ko‘rlar uchun funksiyasini yaxshilash uchun aqlli bo‘lishi mumkin.

Ko‘rishning buzilishi butun dunyo bo‘ylab ko‘plab insonlarga ta’sir ko‘rsatadigan muhim muammolar bo‘lib, Irlandiya Ko‘zi ojizlar Milliy Kengashi ma’lumotlariga ko‘ra, 1-rasmda ko‘rsatilganidek, millionlab ko‘r insonlar normal turmush tarzini olib bora olmaydilar. Ko‘rish qobiliyati zaif bemorlar jiddiy yordamga muhtoj. Zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellekt yordamida bu bemorlar o‘z hayotlarini yaxshilash uchun innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish uchun alohida ish va e'tibor talab qiladi. Ko‘zi ojiz insonlar tanish ko‘chalarda harakat qilishda qiynaladi va ular hayotni yaxshilaydigan texnologiyalarni talab qiladi. SIga asoslangan yechimlar ko‘rish qobiliyati zaif bemorlarning hayotini yaxshilashi mumkin. Ushbu tadqiqot ko‘r insonlarga yo‘lni kesib o‘tishga va aqlli shaharlardagi narsalarni aniqlashga yordam berish uchun aqlli bosh kiyimlardan foydalanishni taklif qiladi.



1-rasm. Dunyodagi ko‘zi ojiz bo‘lgan insonlar soni.

Aqlli shaharlar ko‘r insonlarning hayotini o‘zgartirishi mumkin. Jamoat joylaridan foydalanish imkoniyati ko‘zi ojizlar uchun aqlli shaharlarning muhim xususiyatidir. Taklif etilayotgan aqlli bosh kiyim texnologiyasi nogironlar uchun qulay muhit yaratishga yordam beradi. Ovoz signallari bilan aqlli svetoforlar ko‘r insonlarga gavjum chorrahalarni kesib o‘tishga yordam beradi va ko‘r insonlar aqlli jamoat transporti tarmoqlari uchun real vaqt rejimida avtobus va poezdlar jadvali yordamida sayohatlarini rejalashtirishlari mumkin.

Aqlli shaharlar ko‘rlarga ma’lumot beradi. Ko‘zi ojiz insonlar QR kodlarini skanerlash va raqamli ma’lumotlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish uchun aqlli bosh kiyimga ulanish uchun smartfonlaridan foydalanishlari mumkin. Bu ko‘r insonlarga aloqada bo‘lishga va ma’lumotlarga kirishga yordam beradi. Aqlli shaharlar, shuningdek, ko‘zi ojiz insonlarga ichki makonlarda harakat qilish imkonini beradi. Ko‘zi ojiz insonlar notanish binolarda ovoz bilan faollashtirilgan ichki navigatsiya tizimlarining audio yo‘nalishlari va tavsiflari bilan harakat qilishlari mumkin.

Tadqiqotlar tahlili

Ko’rishni buzilishi bu ko‘zga ta'sir qiladigan anatomik deformatsiyalar, kasalliklar yoki yaralar natijasidir [4]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, nogironlik bu funksiyaning yo‘qolishiga olib keladigan va bemor uni normal bajara olmaydigan disfunksiyadir. Bu jismoniy, aqliy yoki ikkalasi ham bo‘lishi mumkin bo‘lgan cheklovdir [5]. Biroq, tadqiqotchilar ko‘rish qobiliyati zaif insonlar kundalik hayotini samarali boshqarishi mumkinligini aniqladilar.

Ko‘rish qobiliyati zaif bemorlarga hayotda duch keladigan to‘siqlarni yengib o‘tishda yordam berish uchun sun’iy intellektga asoslangan yechimlarni qabul qilish bo‘yicha ko‘plab olimlar tomonidan bir nechta tadqiqotlar o‘tkazildi. SI odatda inson aqlini talab qiladigan funksiyalarni bajara oladigan aqlli mashinalarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadigan kompyuter fanining katta sohasini ifodalaydi. Biroq, mashinali o‘qitish va chuqur o‘qitish evolyutsiyasi texnologiya sanoatining deyarli barcha sohalarida paradigma o‘zgarishiga olib keldi, shu bilan birga shifokorlar va bemorlarga bir vaqtning o‘zida yordam berdi [6]. Aksariyat insonlar sun’iy intellektning konventsiyasi va uning kundalik hayotimizni o‘zgartirish hamda osonlashtirish qobiliyati bilan yaxshi tanish emas. Nogironlar ko‘pincha qo‘rquv, rahm-shafqat, noqulaylik aybdorlik bilan munosabatda bo‘lishadi [7].

Smartfon ko‘rish qobiliyati zaif foydalanuvchilarga yordam berishga qodir kuchli vositadir. Masalan, hujjatlarni smartfon kamerasi ostiga qo‘yish orqali ko‘zi ojiz insonlar elektron pochta xabarlarini o‘qiy oladi. Misol uchun, Amazonning Alexa kabi virtual shaxsiy yordamchilari harakatchanligi cheklangan insonlarga faqat ovoz yordamida uyidagi hamma buyumlarni boshqarishda yordam berishi mumkin. “Seeing AI” bu ko‘r va zaif ko‘ruvchilar hamjamiyatiga mo‘ljallangan bepul ilova vositasi. Bu yaqin atrofdagi insonlar, obyektlar va matnlarni tasvirlash orqali vizual dunyoni ochish uchun sun’iy intellektdan foydalanadigan davom etayotgan tadqiqot loyihasining natijasidir. Ko‘rish qobiliyati cheklangan insonlarga yangi texnologiyalarni loyihalashda yordam berish uchun bir nechta yechimlar taqdim etilgan. Tadqiqotchilar yangi SI tizimlarini yaratishda ijtimoiy ishtirok, himoya, mustaqillik va navigatsiyani taklif qilishdi [8].

Boshqa tadqiqotda alohida ehtiyojli insonlarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘rib chiqildi [9]. SI, shuningdek, ko‘rish qobiliyati zaif insonlarga tasvirlarni tushuntirish orqali yordam beradi. Biroq, sun’iy intellektning nutq taraqqiyoti nafaqat ko‘rish imkoniyati cheklangan insonlarga tegishli.

Speech-to-text va text-to-speech texnologiyasi bemorlarga ko‘proq muloqot qilish imkonini beradi. Bir nechta sun’iy intellekt texnologiyalari ko‘rish qobiliyati zaif insonlarga belgilar va landshaft matnlarini tanib olishga va ko‘proq harakatchanlik bilan yanada qulayroq yashashga yordam beradi. Uy SI texnologiyasi xavfsizlikni yaxshilaydi va aqlli uylar kimdir qulab tushsa yoki favqulodda xabardor qilishi mumkin. Obyekt va tasvirni identifikatsiya qilish e’tiborni tortdi, tasvir va obyektni tanib olish muhimdir.

Metadologiya

A. Ma’lumotlar to‘plami

Ushbu tadqiqot nogironlarga turli obyektlarni aniqlashga va real vaqt rejimida aqlli shaharlarning afzalliklaridan foydalanishga yordam berishga qaratilgan. Aqlli bosh kiyim VR texnologiyasini qo‘llab-quvvatlaydigan standart kamera, shuningdek, mikrofon va spiker bilan jihozlangan. Model Common Objects in Context (COCO) ma’lumotlar to‘plami bilan o‘qitildi va obyektlarni quyidagi uchta bosqichda aniqlash mumkin:

1. Kamera, mikrofon va spikerni ushbu funksiya uchun maxsus ishlab chiqilgan ilovaga ulash; VR kamerasi yuqori darajadagi ishonchni ta'minlagan YOLO algoritmi yordamida real vaqt rejimida obyektlarni suratga olishga va ularni aniqlashga muvaffaq bo‘ldi.

2. Dasturiy ta’minot obyektlarni aniqladi va matnni tanib olish va aylantirish uchun Text-to-Speech (TTS) algoritmidan foydalandi. TTS algoritmlari yozma matnni sinchkovlik bilan o‘rganish, tasniflash va talqin qilish uchun tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) usullarini qo‘llaydi, so‘ngra matnning eshitish orqali ifodasini yaratish uchun nutq sintezidan foydalanadi.

3. Ovoz bilan faollashtirilgan shaxsiy yordamchilar (VAPA) ko‘zi ojiz insonlarga muloqot jarayonida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi, ularni to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltirish va qaror qabul qilishga yordam beradi, chunki ular oldida nima borligini aniqlashga harakat qiladi.



2-rasm. Taklif etilgan model

B. Jarayon

COCO ma’lumotlar to‘plami turli xil obyektlarning 50 dan ortiq tasvirlarini o‘z ichiga oladi. Quyidagi uchta sinf ko‘rib chiqiladi:

✓ Yo‘l harakati: Bu sinfda svetoforlar, yo‘lni kesib o‘tish belgilari va boshqalar kabi barcha yo‘l harakati yo‘riqnomalari mavjud.
✓ Obyektlar: Bu sinfda stol, stullar va boshqa turli xil obyektlar mavjud.
✓ Hayvonlar: Bu sinfda it, mushuk va boshqa hayvonlarning har xil turlari mavjud.

Ushbu turkumlash jarayoni COCO ma’lumotlar bazasida ko‘pchilik obyektlarni taqsimlash standartiga asoslanadi. Konvolyutsion neyron tarmog‘i (CNN) algoritmi tanib olingan tasvirni tasniflash va uni kelajakda olish uchun saqlashga qodir. Ular avtonom tarzda o‘rganish va tasvirlardan xususiyatlarni ajratib olish uchun mo‘ljallangan, ular keyinchalik tasvirlarni turli toifalarga belgilash uchun ishlatiladi. CNNlar bir nechta qatlamlarga ega, shu jumladan konvolyutsion qatlamlar, birlashtiruvchi qatlamlar va ularning asosiy tuzilishi sifatida to‘liq bog‘langan qatlamlar.

Tarmoq qirralar, burchaklar va teksturalar kabi xususiyatlarni ajratib olish uchun konvolyutsion qatlamdagi kirish tasviriga filtrlar to‘plamini qo‘llaydi. Keyin birlashtiruvchi qatlam o‘lchamlarini kamaytirish uchun xususiyat xaritalarini namuna oladi. To‘liq bog‘langan qatlamda tarmoq ushbu xususiyatlardan foydalangan holda tasvirni bir yoki bir nechta toifalarga ajratadi. Ushbu algoritm yordamida tasvirlarni tasniflash uchun CNN belgilangan tasvirlar to‘plamiga o‘rgatilgan bo‘lishi kerak. O‘quv jarayonida tarmoq turli toifalarga mos keladigan tasvir timsollarini aniqlashni o‘rganadi. O‘qitilgandan so‘ng, CNN yangi tasvirlarni tarmoq orqali o‘tkazish va chiqish asosida ularning toifalarini aniqlash orqali tasniflash uchun ishlatilishi mumkin. TensorFlow va Keras kabi chuqur o‘rganish tizimlarida CNNlarni amalga oshirishda ko‘plab kutubxonalar mavjud.

CNNni tenglama yordamida ifodalash mumkin (1):

$$y = f(W * x + b) \tag{1}$$

bu yerda y chiqish, x kirish, W vazn matritsasi, b egilish vektori va f faollashtirish funksiyasi. * operatori W va x o‘rtasidagi konvolyutsiyani ifodalaydi.

Oddiy CNN arxitekturasida bu tenglama turli darajadagi mavhumlikni o‘rganish uchun turli vazn matritsalari va moyilliklari bilan bir necha marta qo‘llaniladi. Yakuniy chiqish qatlami bashorat yoki tasnifni yaratmaguncha, bitta qatlamning chiqishi keyingi qatlam uchun kirish bo‘lib xizmat qiladi.

Natija va Mulohaza

Tajribalar Python bilan uchta sinfga asoslangan turli obyektlarning integratsiyalashgan ma’lumotlar to‘plamidan foydalangan holda o‘tkazildi:

• Yo‘l harakati;

• Obyektlar;

• Hayvonlar.

Virtual reality (VR) kameralari texnologik dunyoda mashhurlik kasb etmoqda. Ular turli maqsadlarda, jumladan, o‘yin, turizm va ta’lim uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan 360 darajali yozuvlar va tasvirlarni olishlari mumkin. VR kameralarining eng diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri bu turli obyektlarni ishonchli aniqlash qobiliyatidir. VR kameralarida obyektni aniqlash ilg‘or algoritmlar va mashinali o‘qitish usullari yordamida amalga oshiriladi.



3-rasm. Aqlli bosh kiyimning jarayonlari ketma-ketligi diagrammasi



4-rasm. Aqlli bosh kiyim arxitekturasi

3 va 4-rasmlarda, obyektlarni tanib olish uchun VR kamerasi YOLO algoritmi yordamida tasvirdan obyektlarni tanib uchun foydalanilgan. Mikrofon va kamerani o‘z ichiga olgan VAPA qurilmasi ko‘zi ojiz insonlarning so‘rovlari bilan ovozni aniqlash va TTS algoritmidan foydalanib, ularga o‘z vazifalarini bajarishda yordam berish uchun ishlatiladi.

1-jadval.

Turli obyektlarni aniqlash uchun ish vaqti natijalari

VR kamera orqali tasvirga olish va YOLO tomonidan aniqlangan	Vaqt/ishonch	Sinf
	4,5 soniya/Yuqori	Hayvonlar
	3,7 soniya/Yuqori	Yo‘l harakati
	3,2 soniya/Yuqori	Yo‘l harakati
	7,8 soniya/Yuqori	Obyektlar

Ushbu algoritmlar turli obyektlarning shakli, o‘lchami, rangi va tuzilishini aniqlash uchun to‘plangan tasvir va videolarni tahlil qiladi. Ularning aniqligini oshirish uchun algoritmlar obyektlar paydo bo‘ladigan konteksni ham hisobga oladi. ushbu tadqiqotda YOLO algoritmi nogironlarni normal hayotlarida baholash uchun qo‘llanildi.

VR kamerasi 1-jadvalda ko‘rsatilganidek, yuqori ishonch bilan obyektni aniqlaganda, obyekt qanday ko‘rinishda bo‘lishi ehtimoli yuqori. Ushbu yuqori darajadagi ishonch foydalanuvchilarga aniqlangan obyekt bilan turli yo‘llar bilan o‘zaro aloqa qilish imkonini beradi. Agar VR kamerasi xonadagi stulni aniqlasa, masalan, foydalanuvchilar unga o‘tirish yoki uni harakatlantirish orqali u bilan muloqot qilishlari mumkin.

VR qurilmalari bizning atrof-muhitni tasvirga olish va o‘zaro ta'sir qilish qobiliyatimizni inqilob qildi. Ularning turli obyektlarni ishonchli aniqlash qobiliyati yo’l harakati, obyektlar, hayvonlar va boshqa toifalar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Umuman olganda, eksperimental natijalar shuni ko‘rsatdiki, CNN klassifikatori eng yaxshisi bo‘lib, turli obyektlarni to‘g‘ri sinfda tasniflash nuqtai nazaridan sezilarli ishonchlilik va ishlashni taklif qiladi. Bundan tashqari, natijalar shuni ko‘rsatdiki, YOLO algoritmining oldingi versiyasiga

nisbatan bir tasvirdagi turli obyektlarni tezroq aniqlashga qodir.

Xulosa

Ushbu maqola ko‘rish qobiliyati zaif insonlar aqlli shahar hududlarini samarali bosib o‘tishlari mumkin bo‘lgan vositalarni tushunishimizni kuchaytirishga qaratilgan. Obyektni tanib olish uchun tavsiya etilgan metodologiyaning samaradorligini tasdiqladi, bu nogironligi bo‘lgan insonlarga kundalik faoliyatini tabiiy va uzluksiz tarzda amalga oshirishga yordam beradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, VAPA uskunasidan foydalangan holda CNN va YOLO kombinatsiyasi obyektlarni tanib, tez va ishonchli natijalarni taqdim etadi. Bu insonlarning o‘zaro ta'siri sohasida SIdan foydalanishni kengaytirishi mumkin.

Adabiyotlar

1. The Alan Turing Institute. (2019). AI and inclusion.
2. M. R. Morris, A. Zolyomi, C. Yao, S. Bahram, J. P. Bigham, and S. K. Kane, "With most of it being pictures now, I rarely use it: Understanding Twitter's evolving accessibility to blind users," in Proc. the 2016 CHI Conference on Human Factors in Computing Systems, San Jose California, USA, 2016.
3. World Health Organization. (2015). Visual impairment and blindness. [Online].
4. C. Morrison, E. Cutrell, A. Dhareshwar, K. Doherty, A. Thieme, and A. S. Taylor, "Imagining artificial intelligence applications with people with visual disabilities using tactile ideation," in Proc. the 19th International ACM SIGACCESS Conference on Computers and Accessibility, Baltimore, USA, 2017.
5. P. Shneha, P. Reddy, and V. M. Megala, "Artificial intelligence for vision impaired people," International Journal of Latest Trends in Engineering and Technology, pp. 031–036, 2018.
6. Y. Qawqzeh, M. T. Alharbi, A. Jaradat, and K. N. A. Sattar, "A review of swarm intelligence algorithms deployment for scheduling and optimization in cloud computing environments," PeerJ Computer Science, vol. 7, no. 6, p. e696, 2021.
7. L. Deng, "Artificial intelligence in the rising wave of deep learning: the historical path and future outlook," IEEE Signal Processing Magazine, vol. 35, no. 1, pp. 180–177, 2018.
8. S. A. Majali, "The impact of empowering people with special needs from information and communication technology," Arab Journal of Disability and Talent Sciences, vol. 4, no. 14, 2020.
9. S. Felix, S. Kumar, and A. Veeramuthu, "A smart personal AI assistant for visually impaired people," in Proc. 2nd International Conference on Trends in Electronics and Informatics (ICOEI), Tirunelveli, India, 2018.

Mualliflar

Xo‘jamatova Shaxlo

Menejment va marketing kafedrasi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, 100200, Toshkent, O‘zbekiston;

**Mas’ul: sh.khujamatova@gmail.com*

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH SHAROITIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYA-LARINING O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi barqaror rivojlanish sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni ko‘rib chiqilgan va muxokama qilingan. Bugungi kunga kelib barqaror rivojlanish global davlatlar erishmoqchi bo‘lgan kun tartibi hisoblanib, unda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish mamlakatlarning barqaror rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. AKTning barqaror rivojlanishning har bir ko‘rsatkichlari bilan aloqasi boshqa o‘lchovlar mavjudligi bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, AKT mamlakatning barqaror rivojlanishi ko‘rsatkichlariga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. AKT iqtisodiy ko‘rsatkichlarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi va iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri orqali barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy o‘lchovini amalga oshirishga olib keladi. AKTning dunyoning eng chekka mamlakatlarga ham keng shaklda kirib borishi uning shu davlatning barqaror rivojlanishga erishishi uchun asosiy lakomativga aylanib kelmoqda. Shuningdek, barqaror rivojlanishning uch o‘lchovini muvozanatlash uchun katta hajmdagi ishlarni amalga oshirish talab etilmoqda.

Kalit so‘zlar: ICT, barqaror iqtisodiy o‘sish, iqtisod, ijtimoiy rivojlanish, atrof-muhit, konsepsiya.

THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH

Abstract: This article examines and discusses the role of information and communication technologies in today's sustainable development. To date, sustainable development is considered an agenda that global countries want to achieve, and the use of information and communication technologies (ICT) serves as the basis for sustainable development of countries. The analysis of the relationship of ICT with each of the indicators of sustainable development on the presence of other dimensions shows that ICT has a significant positive effect on the indicators of sustainable development of the country. ICT has a strong impact on economic performance and, through its impact on economic performance, leads to the realization of the environmental and social dimensions of sustainable development. The widespread penetration of ICT in the most remote countries of the world is becoming the main locomotive for the country's sustainable development. Also, a large amount of work is required to balance the three dimensions of sustainable development.

Keywords: ICT, sustainable economic growth, economy, social development, environment, concept.

Authors

Khujamatova Shakhlo

Department of Management and Marketing, Tashkent University of Information Technologies named after Mukhammad al-Khwarizmi, 100200, Tashkent, Uzbekistan;

**Correspondence: sh.khujamatova@gmail.com*

Kirish

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi 2015 yilning sentabr oyida 92 ta banddan iborat bo‘lgan 2030 yilgacha rivojlanish kun tartibini qabul qildi va uning 91-bandida 17 ta barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) hamda 169 ta boshqa tegishli maqsadlar belgilab olindi. Ushbu Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish sammitida 2030-yilgacha barqaror rivojlanish kun tartibi [1] tasdiqlandi. Ushbu sammit 2015 va 2030 yillar oralig‘ida barqaror rivojlanishga erishish uchun xalqaro hamkorlik uchun global va universal ko‘rsatkichlar bilan bog‘liq yangi ko‘rsatkichlar tizimini taklif qildi, shuningdek, ular jami 17 ta yangi Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) o‘z ichiga oladi (1-rasm).

Ushbu yangi kun tartibi haqiqatda 2000 yilda qabul qilingan Mingyillik Rivojlanish Maqsadlarini (MRM) davom ettiradi [2], ular asosiy guruhlar va fuqarolik jamiyatining keng ishtirokida a’zo davlat boshchiligidagi tartib orqali ishlab chiqilgan. Yangi BRM doirasida MRMni amalga oshirishdan olingan keng qamrovli tajribadan foydalanadi, shuningdek, qisman amalga oshirilmagan MRMlarni rivojlantirishga hizmat qiladi, shuningdek tenglik va shaxarlashtirish bo‘yicha yangi paydo bo‘layotgan muammolarni hal qilish orqali qo‘llab-quvvatlanadi.

Ush jarayon global hamkorlikni yanada rivojlantiradi, shu bilan birga, MRMlarning uzluksizligi va konsolidatsiyasini aks ettiradi, shuningdek ekologik barqaror rivojlanishlarni mustahkamlash orqali yanada barqarorlikni oshirishga imkon beradi [3]. Garchi yuqorida keltirilgan 17 ta barqaror rivojlanishlarning hech biri, xususan, Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) taalluqli bo‘lmasada shu bilan birga faqatgina bir nechta maqsadlarda AKT va tegishli texnologiyalar eslatib o‘tilgan bo‘lsada, Barqaror rivojlanish bo‘yicha 2030 kun tartibi hali ham AKT insoniyat taraqqiyotini sezilarli darajada tezlashtirishi mumkinligini alohida ta’kidlab o‘tgan [1].

Materiallar va usullar

Xalqaro elektraloqa ittifoqi (XEI) BMTning tegishli tashkilotlaridan biri bo‘lib, uning vazifasi butun dunyo bo‘ylab telekommunikatsiya xizmatlarini tashkil etishdan iborat. XEI barqaror rivojlanishni yaratishda AKTning muhim rolini namoyish qilish uchun katta kuch sarflamoqda.

1-rasm. 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibida qabul qilingan 17 ta rivojlanish maqsadlari [1]

XEI barqaror rivojlanishlarni o'lchash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlarni aniqlashda faol ishtirok etdi. Olingan 17 barqaror rivojlanish va 169 maqsad kelgusi yillarda insoniyat uchun ham, sayyoramiz uchun ham muhim bo'lgan ko'plab fanlar bo'yicha muhim harakatlarni rag'batlantiradi. Shuning uchun barqaror rivojlanish "5P" (Odamlar, Farovonlik, Hamkorlik, Tinchlik va Sayyora)ni o'z ichiga oladi (2-rasm).



2 – rasm. Barqaror rivojlanishning beshta asosi

AKT yuqoridagi barcha barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy lakomativi bo'lib va bu barqaror rivojlanishlarni amalga oshirish uchun juda muhimdir. AKT sohasidagi hozirgi tadqiqotlar va ishlanmalar ko'proq saqlash hajmi, hisoblash tezligi, hisoblash imkoniyatlari, aloqa va tarmoqlar kabi texnologik muammolarni o'rganishga qaratilgan. Barqaror rivojlanish yo'nalishidagi tadqiqot va ishlanmalar turli sohalar bo'yicha tadqiqotchilar o'rtasidagi hamkorlikni, shuningdek sanoat, hukumatlar va tashkilotlar bilan keng ko'lamli aloqa va hamkorlikni talab qiladi. Ushbu hamkorlik va aloqalar jamoaviy muhit, siyosat va qoidalarni o'rnatishga, shuningdek, yuqori samaradorlik bilan o'zaro ishonch, tan olish va bir-biriga majburiyat bo'lgan yangi tadqiqot madaniyatlarini yaratishga yordam berishi mumkin.

Barqaror rivojlanishda texnologik innovatsiyalar va rivojlanish uchun kuchli motivatsiyalar asosan 2015-yildan boshlab kuchli rivojlanishga olib kelib, unda yangi tadqiqot amalga oshirish va shuningdek, barcha mamlakatlada barqaror rivojlanishlarni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'ladigan kengaytirilgan tadqiqotlarni moliyalashtirish imkoniyatlari kabi muhim afzalliklari sababli AKT sohalariga bo'lgan talab sezilarli darajada osha boshladi. Shundan kelib chiqib, ushbu 17 barqaror rivojlanishni qanday hal qilingani va nima yaxshi o'rganilmaganligini aniqlash uchun barqaror rivojlanishlarning AKTga aloqadorligi bo'yicha eng so'nggi yutuqlarni o'rganishga sabab bo'lmoqda. Yaxshi salomatlik (BR 3), Barqaror shaharlar (BR 11) va Iqlim harakati (BR 13) kabi AKTga tegishli bir qancha ishlar amalga oshorob kelinmoqda

Shuningdek, AKT butun iqtisod va jamiyatlarda o'zgarishlar uchun kuchli va keng tarqalgan kuch sifatida kirib kelmoqda va uni "Radio, televizor, uyali telefonlar, kompyuter va tarmoq apparat va dasturiy ta'minoti, sun'iy yo'ldoshni o'z ichiga olgan har qanday aloqa qurilmasi yoki ilovasini o'z ichiga olgan atamalar" orqali tushunishimiz mumkin [4]. Biroq, "AKT, Internet va barqaror rivojlanish" o'rtasidagi munosabatlar uchun "Yangi paradigma"

yo‘lida ishlashga intilishda [5]. “Barqaror rivojlanish va AKT/Internet davlat siyosati bilan shug‘ullanuvchi siyosatchilar va faollar o‘rtasida hayratlanarli darajada kam o‘zaro aloqalar bo‘lganini” ta’kidladi. Internetdagi davlat siyosati va muammolar turli tadqiqotlarda ko‘rib chiqilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular o‘rtasida juda oz almashinuv bo‘lgan [5]. Yevropa axborot texnologiyalari observatoriyasi (EITO) “AKTning jamiyat va madaniyatga tez kirib borishi natijasida barqaror rivojlanish uchun yaratilgan ta’sir va imkoniyatlarga” qiziqish ortib borayotganini ma’lum qildi.

Natijalar

Elektron Barqarorlik Global Tashabbusi AKT sanoatining bir qator muammolar, jumladan, iqlim o‘zgarishi bo‘yicha barqaror rivojlanishga qo‘shishi mumkin bo‘lgan hissasi haqida hisobot berib unda:

- chiqindilar va materiallardan foydalanish;

- AKTdan foydalanish;

- xodimlar bilan munosabatlar;

- iqtisodiy rivojlanishlar qayd etilgan [6].

AKT va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi munosabatlarga analitik yondashuv uchun kontseptual asosni ishlab chiqish va “barqaror rivojlanishning me’yoriy kontseptsiyasi”ni ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy o‘lchovlarga ajratish shu bilan birga AKT va barqaror rivojlanishni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi [7]. Atrof-muhitga ta’sir darajasini rivojlanish uchun AKTning insoniy, ijtimoiy va ekologik muvofiqligini aniqlash. Ko‘plab o‘ziga xos muammolarga, shu jumladan aqlli barqaror shaharlarga e’tibor qaratuvchi “Ishlab chiqarish va iste’molning yanada barqaror modellarini rivojlantirish uchun AKTning transformatsion kuchidan” qanday foydalanish bo‘yicha quyidagilar mavjudligi ilgari surilgan [8]:

- ma’lumotlar markazlarining energiya talablari;

- ta’minot zanjirlari uchun dasturiy ta’minot;

- AKT uskunalarini qayta ishlash; internetning energiya intensivligi;

- energiya, axborot va o‘sishning o‘zaro bog‘liqligi.

Barqaror rivojlanish ustunlarining bir biriga bo‘lgan munosabatlari ikki tomonlama strelkalar yordamida tasvirlangan bo‘lib, ushbu tadqiqotda munosabatlar 3-rasmda tasvirlangan ta’sir yo‘nalishini ko‘rsatadigan o‘qlarga soddalashtirilgan.

Ushbu 3-rasm keltirilgan barqarorlikning uchta ustunining ta’siri iqtisodiyotdan atrof-muhitga, atrof-muhitdan ijtimoiy va ijtimoiydan iqtisodiygacha bo‘lishi mumkin yoki munosabatlar iqtisodiydan ijtimoiyga, ijtimoiydan atrof-muhitga va atrof-muhitdan iqtisodiygacha bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.



3-rasm. Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi

Barqaror rivojlanishlar iqtisodiyot, jamiyat va atrof-muhitning turli jihatlariga aniq belgilangan ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib so‘nggi olib borilayotgan tadqiqotlarda bir nechta toifalar ularni bir necha o‘lchovlarga tasniflash uchun ko‘rib chiqilmoqda [9, 10]. Shundan kelib chiqqan holda yuqorida keltirilgan yo‘nalishlarni aloxida ko‘rib chiqamiz:

Iqtisodiy o‘lchov: U iqtisodiy darajadagi barqaror rivojlanishga va shaxslarning farovonligi hamda ularni farovonligini hisobga olishga qaratilgan. Bu o‘lchov ikki nuqtai nazarga bo‘linadi:

- qashshoqlikni qisqartirish, oziq-ovqat bilan ta’minlash va sog‘liq bilan bog‘liq hayot;

- iqtisodiy o‘sish, barqaror sanoatlashtirish va innovatsiyalar bilan bog‘liq iqtisodiy va texnologik rivojlanish.

Ijtimoiy o‘lchov: U jamiyatlarning tengligi, farovonligi va farovonligi nuqtai nazaridan barqaror rivojlanishga e’tibor qaratadi. Bu o‘lchov ikki istiqbolga bo‘linadi:

- barqaror jamiyatlar, tinchlik, adolat va global hamkorlik bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish;

- ta’lim olish va ishga joylashishda tenglik, jins va boshqa omillar.



4-rasm. Barqaror rivojlanishga ta’sir etuvchi AKT kontseptual modeli

Atrof-muhit o‘lchovi: Bu barqarorlikni ta’minlash uchun atrof-muhitni saqlash va uning asosiy resurslarini boshqarish bilan bog‘liq. Bu o‘lchov ikki nuqtai nazarga bo‘linadi:

- resurslar, jumladan, suv, toza energiya, mas’uliyatli ishlab chiqarish va iste’mol;

- iqlim, quruqlik va suv osti ekotizimlariga asoslangan tabiiy muhit.

Barqaror rivojlanishni ikki tomonlama munosabatlar shaklida ko‘rib chiqiladi [11]. AKT ning hamma joyda mavjudligi uni barqaror rivojlanishga erishish yoki tezlashtirish vositasiga aylantiradi. Shuningdek, AKT barqaror rivojlanish ustunlaridan biriga ta’sir ko‘rsatishi mumkin va tarqalish effekti Barqaror rivojlanishning boshqa ustunlarida aks etadi. Shunday qilib, mamlakat uchun Barqaror rivojlanishga erishishda AKT iqtisodiy o‘sishga katta ta’sir ko‘rsatadi va barqaror rivojlanish ustunlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini aks ettiradi. Iqtisodiy o‘sish AKTning atrof-muhit ko‘rsatkichlariga yoki inson rivojlanishiga ta’sirida vositachilik qilishi mumkin. Yuqoridagi bayonotlarni hisobga olgan holda, AKT ning barqaror rivojlanishga ta’sirini ko‘rsatuvchi kontseptual model tasvirlangan (4-rasm). Barqaror rivojlanishning har bir ustunining AKT ning barqaror rivojlanishning boshqa ustunlari bilan ta’siri bo‘yicha vositachilik aloqalari quyidagicha faraz qilinadi:

A4: AKTdan foydalanish darajasi va mamlakatning iqtisodiy o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlik mamlakatning atrof-muhit ko‘rsatkichlari yoki inson rivojlanishi bilan bog‘liq;

A5: AKTdan foydalanish darajasi va mamlakatning inson taraqqiyoti o‘rtasidagi bog‘liqlik vositachilik qiladi yoki mamlakatning ekologik ko‘rsatkichlari yoki iqtisodiy o‘sishga olib keladi;

A6: AKTdan foydalanish darajasi va mamlakatning atrof-muhit ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik mamlakatning iqtisodiy o‘sishi yoki inson rivojlanishi bilan bog‘liq hisoblanadi.

Xulosa

Shunindek, barqaror rivojlanishda raqamli texnologiyalar innovatsion tabiati bilan ajralib turadi. Ushbu texnologiyalar tez rivojlanish va turli sohalarga moslashish qobiliyatiga egaligi, ularning umumiy asosi sifatida yangi biznes modellarini keltirib chiqaradi. Xususan, sun’iy intellekt (AI) va uning atrofidagi raqamli texnologiyalar, masalan, katta ma’lumotlar, blokcheyn, bulut, virtual va to‘ldirilgan reallik va boshqalar jamiyatimizni inqilob qilib, uni to‘rtinchi sanoat deb ataladigan hozirgi davrda o‘zgartirishga turtki bermoqda. Aslini olganda, ushbu texnologiyalar global miqyosda o‘zgarishlar uchun ijtimoiy va iqtisodiy dastak sifatida birlashishi kutilmoqda.

Adabiyotlar

1. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development, UN Gen. Assembly, New York, NY, USA, 2015.
2. "A life of dignity for all: Accelerating progress towards the millennium development goals and advancing the united nations development agenda beyond 2015," UN Gen. Assembly, New York, NY, USA, Rep. A/68/202, 2013.
3. J. D. Sachs, "From millennium development goals to sustainable development goals," Lancet, vol. 379, no. 9832, pp. 2206–2211, 2012.
4. Rouse, M. (2005). ICT (information and communications technology, or technologies). Retrieved March 21, 2017, from http://searchcio.techtarget.com/definition/ICT-information-and-communications-technologyor-technologies.
5. Souter, D., MacLean, D., Okoh, B., & Creech, H. (2010). ICTs, the Internet and Sustainable Development: Towards a new paradigm. International Institute for Sustainable Development, 1–39.
6. Http://gesi.org. (2008). The contribution the ICT industry can make to sustainable development. Retrieved January 23, 2017, from http://gesi.org/report/detail/the-contribution-the-ict-industry-can-make-tosustainable-development.
7. Hilty, L. M., & Hercheui, M. D. (2014). ICT and Sustainable Development. Retrieved February 2, 2017, from https://hal.inria.fr/hal-01054793/document.
8. Hilty, L., & Aebischer, B. (2015). ICT Innovations for Sustainability. London: Springer.
9. Vinuesa R, Azizpour H, Leite I, Balaam M, Dignum V, Domisch S, Fellander A, Langhans SD, Tegmark M, Nerini FF (2020) ¨The role of artificial intelligence in achieving the sustainable development goals. Nat Commun 11(1):1–10.
10. Wu J, Guo S, Huang H, Liu W, Xiang Y (2018) Information and communications technologies for sustainable development goals: State-of-the-art, needs and perspectives. IEEE Communications Surveys Tutorials 20(3):2389–2406.
11. Hosseini, H., & Kaneko, S. 2012. "Causality between pillars of sustainable development: Global stylized facts or regional phenomena?". Ecological Indicators, 14(1), 197–201.

O‘ZBEKISTON AVTOMOBIL-LARINING DAVLAT RAQAMINI TANIB OLISH ALGORITMI ISHLAB CHIQISH

Mualliflar

Raxmatilla G‘aybullayev

Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar kafedrasi, “University of Management and Future Technologies” universiteti, Toshkent, 100208, O‘zbekiston;

roma_xalif@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada avtomashina raqamlarini avtomatik aniqlash (RAA), avtrotransport vositalarining tasvirini oladigan ommaviy kuzatuv tizimi va ularning litsenziya raqamini taniydigan dastur haqida so‘z boradi. Maqsad - loyihalash tomonidan samarali avtomatik avtotransport vositasini identifikatsiya qilish tizimini ishlab chiqish hamda uni amaliyotga joriy qilinishidir. Bunda biz bir nechta mustaqil tadqiqotlar olib bordik va ushbu loyiha uchun O‘zbekiston avtomobil raqamidan foydalandik.

Kalit so‘zlar: RAA, Lokalizatsiya, Segmentatsiya, Sun’iy Neyron Tarmoq, belgilarni optik aniqlash.

DEVELOPMENT OF AN ALGORITHM FOR LICENSE NUMBER RECOGNITION OF UZBEKISTAN CARS

Abstract: This paper discusses automatic license plate recognition (RAA), a public tracking system that captures images of vehicles and software that recognizes their license plates. The goal is to design and implement an effective automatic vehicle identification system. In doing so, we conducted several independent studies and used the Uzbekistan license plate for this project.

Key words: RAA, Localization, Segmentation, Artificial Neural Network, optical character recognition.

Authors

Rakhmatilla Gaybullayev

Department of Communication and Digital Technologies, University of Management and Future Technologies, Tashkent, 100208, Uzbekistan;

roma_xalif@mail.ru

Kirish

Raqamni avtomatik aniqlash (RAA)[1] haqiqiy tizim bo‘lib, belgilarni optik aniqlashda foydalanadigan vaqt jarayonida o‘rnatilgan dasturdir. Transport vositalaridagi davlat raqamlarini o‘qish uchun ularning rasmli formatlaridan foydalangan holda uni yo‘l qoidalariga rioya qilish kameralar orqali amalga oshirilgan. O‘zbekistonda ishlab chiqilgan bu tizim turli YPXti tomonidan elektron usul sifatida ishnining aniq va tezligini ta’minlash, shuningdek yo‘llardagi qoidabuzarliklar sodir etilganda qo‘llanilgan pul mablag‘larining ham osongina yig‘ilishini maqsad qiladi. Ammo bu tizimning chegaralangan tomoni shunda ediki, litsenziya raqamlari standartlari faqat shu mamlakat ichki imkoniyatlarini inobatga olgan holda raqam belgilari, fon va old fon rangi uchun raqam belgisi chegarasi, raqam belgisi o‘lchami va boshqalar raqamlarni mahalliylashtirish orqali chegaralangan edi.

Masalaning o‘rganilganlik darajasi.Bu tizim xorij tajribasida yuzaga kelgan bo‘lishiga qaramay, ularning istisno hollari ham mavjud. Bugun bu borada sun’iy intellekt va raqamlashtirish texnologiyalarining keng ildiz otib borayotgani natijasida biz ham ushbu loyihani mamlakatimiz imkoniyatlari asosida o‘rganib chiqishga qaror qildik. Biz bugun yondashuvlarga emas, balki ularning metodologiyasi asosida kichik toifalar asosida sinflab chiqdik.

Ishlab chiqilgan tizimning mohiyati

O‘zbekistonda raqam belgilarida RAA qilishda raqamlar va harflardan foydalanilgan va maxsus kodlashtirilgan. Natijada sonda keng farqlar yuzaga kelgan. RAA da mavjud shrift turi, belgilar o‘lchami va joylashuvi bo‘yicha plitalar raqam belgisi kiritilgan.[2],[3]O‘zbekistonda hozirgi paytda avtomobil raqamlari yangi formatdagi davlat raqamlari (1-rasm) bo‘lishi uchun quyidagilar kiritilgan:1.Viloyat kodeksi, 2. Birlamchi harf belgilari, 3.Raqam, 4. Ikkilamchi harf belgilari, 5. Mamlakat kodi.

1-rasm. Davlat raqami na’munasi

RAA tizimining algoritmida quyidagi bosqichlar inobatga olinadi:

1-qadam: Mashina tasvirini olish, tasvirni olish raqam belgisi, plastinka tasviridan belgini ajratib olish, raqam belgisini tanib olish va avtomobil raqami. Shu asosda avtotransport vositasi tasviri olinadi hamda turli xil algoritmlar bilan qayta ishlanadi.(2-rasm)

2-qadam: Ushbu plastinkani lokalizatsiya qilish algoritmiga asoslanadi. Avtomobil raqamining teksturaviy xususiyatlarini birlashtirgan va ichida o‘ziga xos shakllarga sezgir morfologik operatsiya yaxshi chegara qiymatiga ega bo‘lgan tasvirni kiritiladi shu asosida davlat raqami joylanib tegishli ma’lumotlar chiqib keladi. Lokalizatsiyalashda esa mamlakatning mavjud statistik ba’zasi litsenziya raqamlariga biriktiriladi.



2-rasm. Avtomobil raqamini tanib olish jarayoni.

3-qadam: Davlat raqami belgilarining segmentatsiyasi amalga oshirish. Davlat raqamining joylashuvi va binarizatsiyadan keyin segmentatsiya jarayoni litsenziya o‘rtasida asosiy vazifasini bajaradi. Plastinka lokalizatsiyasi va optik belgilarni aniqlash modullarining asosiy vazifasi - tanlangan belgilarni segmentlashdir. Har bir belgi yuborilishi mumkin bo‘lgan belgi tasvir uchun optik belgilarni aniqlash modullari alohida tanib olishi lozim.

4-qadam:Belgilarni tanib olish RAA ni aniqlashda yordam beradi va tasvir matnini tahrirlanadigan matnga aylantiradi. Ko‘pchilik kabi raqamlarni aniqlash algoritmlari bitta usuldan foydalanadi shuningdek shu avtotransport vositasi xarakterni tan oladi.

Ammo bu tizimning ham o‘ziga xos muammolari ko‘zga tashlanib qolgan edi. Avtotransport vositalarini raqamlashtirishdagi belgilar standart asosida emas va shrift turlari, script, o‘lcham hamda ranglar va raqamlardagi mutanosiblik yo‘q edi.

Ba’zi hollarda, boshqa raqam belgisiga kiruvchi bezaklar mavjud bo‘lib qolgan. Shunday bo‘lishiga qaramay, tizim O‘zbekiston raqamlari tanib olish jarayonini osonlashtiradi. Hozirda ham faqat qo‘lda yozish tizimlari va RAA ishlatiladi. RAA tizimi O‘zbekistonda tijorat maqsadida amalga oshirilmagan. Uning asosiy maqsadi loyiha sifatida amalda sinab ko‘rishdan iborat bo‘lgan. Biz ham bu borada raqamlarni tanib olish ular asosida avtotransport uchun xos xususiyatlar va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlash maqsadida ushbu loyiha ustida tadqiqotlar olib bordik va uni quyidagicha tartibli tarzda amalga oshirdik.

Avtomobil raqamini tasvirga olish

Bu jarayonda tizim amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan joylarga kuzatuv kameralarini o‘rnatish lozim. Bu har qanday ko‘rishga asoslangan tizimlarning birinchi bosqichidir.

Tasvirni qo‘lga kiritgandan so‘ng uni kulrang miqyosdagi (3-rasm) tasvir olinadi. Pseudo kod uchun rasmni kul rangga aylantirish amalga oshiriladi [4].Bunda esa raqamlashtirib yozilgan kodli vazifalar quyidagicha buyruqlar amalga oshiriladi.

1-qadam: Rasmni yuklash.

2-qadam: Tasvirning kenglik, balandlik kabi xususiyatlarini olish.

3-qadam: Jarayonga qadar kulrang rangga aylantirilgandan so‘ng tasvirni ko‘rsatish.

Olingan tasvirga oldindan ishlov beriladi.Oldindan ishlov berish uchun kirish kulrang shkalasi tasvir (4-rasm) hisoblanadi. Ushbu rasmda ham Otsu usuli yordamida ikkilik tasvirga moslashtirilgan. Bu usul bizning dasturimizga nisbatan ko‘proq mos keladi. Bu singari tasvirlarni aniqlashda Niblack usuli kabi boshqa adaptiv binarizatsiyadan o‘tkaziladi.

4-qadam: Binarizatsiyadan so‘ng o‘z ichiga olgan barcha obyektlarni olib tashlanadi. (Keltirilgan rasmning hajmi 30 pikseldan kam) Shovqinni olib tashlash uchun median filtridan foydalaniladi.

5-qadam: Tasvirning ulangan komponentlarini hisoblash tasvirni skanerlash, piksel (yuqoridan pastga va chapdan o‘ngga) bog‘langan piksel hududlarini aniqlanadi.

6-qadam: Tasvirdagi ulangan komponentlarni qidirish, ularning har biri ulangan komponentga tartibda maxsus yorliq beriladi va turli bog‘langan komponentlar farqlanadi

(5-rasm).

7-qadam: Har bir belgi o‘lchamini oldingi bosqichdan o‘zgartiriladi.Foydalanish uchun standart balandlik va kenglik belgilanadi va rasm ajratib olinadi.

8-qadam: Tasvir hududlarining xususiyatlarini chizmachilik orqali o‘lchash uchun alohida belgi va raqamlarni olish uchun chegaralovchi sirt olish jarayoni amalga oshiriladi(6-rasm).

Raqamli plita yoki lokalizatsiya

Lokalizatsiya jarayoni uchun bir qator algoritmlar taklif etiladi. Masalan Interlacing algoritmi, Furye domenni filtrlash va rangli tasvirni qayta ishlash bularga misol bo‘la oladi. Bu algoritmlar raqam belgilari o‘zbek tatqiqotchiligi uchun qoniqarli ishlamaydi.Har bir mamlakatning avtomobil raqamlarini mahalliylashtirish uchun quyidagi omillar inobatga olinishi lozim.

1. Plastinkaning o‘lchami: plastinka har xil o‘lchamda bo‘lishi mumkin .

2. Plastinkaning joylashuvi: plastinka har qanday joyda joylashgan bo‘lishi mumkin.

3. Plastinkaning foni: Plastinkaning foni har xil bo‘lishi mumkin.Ranglari va raqamlar avtomobil turiga qarab tanlanadi.. Masalan, hukumat avtomobil raqami jamoat transportlariga qaraganda turli fonga ega bo‘lishi mumkin.

4.Vint: Plastinkada vint bo‘lishi mumkin va bunda plastinka turli xil xarakter sifatida qaraladi.Navbatdagi bosqich median filtrlash va bog‘langan komponentlar hisoblanadi.

Bog‘langan komponentlar yorlig‘i tasvirni skanerlaydi va o‘z piksellarini piksel ulanishiga asoslangan komponentlarga guruhlaydi.Ya’ni ulangan komponentdagi barcha piksellar o‘xshash bo‘ladi. Piksel intensivligi xususiyatlar va qaysidir ma’noda bir-biri bilan bog‘liq bo‘ladi. Shundan keyin biz kiritgan raqam standart holga keltiriladi.

Davlat raqamini belgilarini segmentlashtirish

Belgilarni segmentatsiyalash jarayoni raqamini mahalliylashtirish va optik belgilarni aniqlash modullari o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi Uning asosiy vazifasi belgilarni qismlarga ajratishdir.Tanlangan belgilangan hududi har bir belgi optik belgilarni aniqlashga yuboriladi. Tanib olish uchun esa modul alohida bo‘ladi. Davlat raqami mahalliylashtirilgach uni individual belgilar olishga kirishamiz. Yuqorida aytib o‘tilganidek, davlat raqami mavjud yuqori intensivlikdagi o‘zgaruvchan hududlar mavjud. Bu uchun belgilar segmentatsiyasi asos bo‘ladi. Kuzatishlarimiz natijasida biz raqamlarning oq yoki qora ranglarda tanlanganini va

oxirgi bosqichda belgilarni tanitishga erishdik.

Taklif qilingan loyihada mamlakat tilini tanib olishi lozim va til belgilari bu borada muhim o‘ringa ega hisoblanadi. U obyektlarni aniqlash uchun ham ishlatilishi mumkin.Odatda yuzni aniqlash va tibbiy tasvirni qayta ishlashda keng qo‘llanilib kelinmoqda. U yana ikki qismga bo‘linadi: xususiyatga asoslangan moslashuv va shablonga asoslangan moslashtirish. Xususiyatga asoslangan yondashuv shablon tasviri kuchli xususiyatlarga ega bo‘lsa foydaliroq bo‘ladi. Statistikada 85% natijaga ga erishish uchun xususiyatni ajratib olish usuli qo‘llaniladi. Segmentatsiyadan so‘ng olingan rasm kulrang rangli tasvir hosil bo‘ladi. O‘qitish uchun ishlatiladigan dastlabki ishlov berish bosqichlarini amalga oshirish yetarli bo‘ladi.



a) b)

c) d)

3-rasm. Algoritm natijalari a) Kulrang tasvir,b) Otsu algoritmida olingan tasvir, c) Chegaralarni ajratish usulida olingan tasvir,d) Raqam aniqlangan tasvir

Xulosa

Ushbu taklif qilingan modelda oldindan ishlov berish va raqam belgisi mahalliylashtirish –“Otsu usullari” yordamida amalga oshirildi va mos ravishda “Xususiyatlarga asoslangan mahalliylashtirish usullari”dan foydalanildi. Bu tanlangan keng o‘zgarishlar binarizatsiya uchun qoniqarli natijalar berdi. Belgilar segmentatsiyasida yangi “Tasvir qaychi” algoritmidan foydalanildi. Bu optimallashtirishda ishonchlilik va vaqt beradi. Xarakterni qayta tashkil etish

uchun “Shablonlarni moslashtirish”dan foydalanildi. Algoritm natijasida umumiy aniqlik 80% foizni tashkil qildi. O‘ylaymizki, taklif qilingan bu dastur yaqin orada yurtimiz RAA tizimida sezilarli darajadagi qulayliklarni yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar

1. Pratamesh Kulkarni; Ashish Xatri; Prateek Banga va Kushal Shoh.“Raqamni avtomatik aniqlash (RAA),” RADIOELEKTRONIKA. 19 th Xalqaro konferensiya, 2009 yil.
2. A Roy va D.P Ghoshal, “Raqamlarni aniqlash takomillashtirilgan segmentatsiyadan foydalangan holda turli mamlakatlar” 2-da Rivojlanayotgan tendentsiyalar va ilovalar bo‘yicha milliy konferentsiya Kompyuter fanlari (NCETACS). 2011, 1-5-betlar.
3. Ch.Jaya Lakshmi; Dr.A.Jhansi Rani; Dr.K.Sri Ramakrishna va M. KantiKiran, “Hindiston litsenziyasini tan olish tizimiga yangi yondashuv”, Xalqaro ilg‘or muhandislik fanlari jurnali va Texnologiyalar; jild. 6, yo‘q. 1, 10-14-betlar, 2011 yil.
4. H. Erdinc Kocer va K. Kursat Chevik. “Sun’iy neyron tarmoqlari avtomobil raqamini aniqlashga asoslangan” Procedia Computer Science. jild 3, 1033-1037-betlar, 2011 yil.
5. Ying Wen va boshqalar, “Lisenziyani aniqlash algoritmi qo‘llaniladi Intellektual transport tizimiga” IEEE Transactions of Intelligent Transport tizimlari, 1-16-betlar, 2011 yil.
6. Chirag Patel, Dipti Shah, Atul Patel, “Avtomatik raqam belgisini tanib olish tizimi”.IJOCA 2013 yil may.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: ASOSIY TUSHUNCHALAR, ZAMONAVIY DUNYOGA TA'SIRI VA MISOLLAR

Mualliflar

Zafarjon G'ayratov

Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O'zbekiston;

zafargayratov94@gmail.com

Mirjalol Najmiyev

Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O'zbekiston;

najmiyevmirjalol4@gmail.com

Sevinch Umurzokova

Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O'zbekiston;

**Mas'ul: zafargayratov94@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada raqamli texnologiyalar ning asosiy tushunchalari, ularning zamonaviy dunyoga ta'siri va misollar ko'rsatiladi. Raqamli texnologiyalar, ma'lumotlar va kommunikatsiya texnologiyalari, tizimlar va algoritmlar, internet, ishlab chiqarish va avtomatlashtirish, yashash muhiti va tibbiyot sohasida keng qo'llaniladi. Maqolada, raqamli texnologiyalar bilan bog'liq asosiy tushunchalar, ularning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, o'quv-uslubiy va boshqa sohalardagi ta'sirini tahlil qilish uchun ilmiy manbalar va tadqiqotlardan foydalaniladi. Maqola zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar ning o'rnini va rolini tushuntirish maqsadida yozilgan.

Kalit so'zlar: veb-sahifa, kompyuter, sun'iy intellekt, IoT, M2M, robototexnika, aqlli muhit, dronlar va boshqariladigan uskunalar.

DIGITAL TECHNOLOGIES: BASIC CONCEPTS, IMPACT ON THE MODERN WORLD AND EXAMPLES

Abstract: The article presents the main concepts of digital technologies, their impact on the modern world and examples. Widely used in digital technology, information and communication technology, systems and algorithms, internet, manufacturing and automation, environment and medicine. The article uses scientific sources and studies to analyze the main concepts related to digital technologies, their impact in economic, social, spiritual, educational and other fields. The article was written in order to explain the place and role of digital technologies in the modern world.

Keywords: web, computer, artificial intelligence, IoT, M2M, robotics, smart environment, drones and manned equipment.

Authors

Zafarjon Gayratov

Department of Telecommunication Engineering, Samarkand Branch of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorazmi, Samarkand, Uzbekistan;

zafargayratov94@gmail.com

Mirjalol Najmiyev

Department of Telecommunication Engineering, Samarkand Branch of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorazmi, Samarkand, Uzbekistan;

najmiyevmirjalol4@gmail.com

Sevinch Umurzokova

Department of Telecommunication Engineering, Samarkand Branch of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorazmi, Samarkand, Uzbekistan;

**Correspondence: zafargayratov94@gmail.com*

Kirish

